

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
FARG`ONA DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI**

Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi yo`nalishi
08.414-guruh bitiruvchisi Haqberdiyev Ravshanjon Ro`ziboyevichning

**“Mustaqil O‘zbekistonda milliy g‘oyani tarkib toptirishning
ijtimoiy-tarixiy negizlari” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI



Ilmiy rahbar: t.f.n. A. Salmonov

Farona – 2012

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3 – 7
 1 – BOB. G‘OYA TUSHUNCHASI: MOHIYATI, MAZMUNI, MILLIY JIHATLARI.....	8 – 41
1.1. G‘oya tushunchasi va uning nazariy-falsafiy tahlili.....	8 – 25
1.2. Milliy g‘oya va ijtimoiy-tarixiy qadriyatlar	26 – 41
 2 – BOB. MILLIY G‘OYANI TARKIB TOPTIRISHNING TARIXIY- MA’NAVIY OMILLARI.....	42 – 72
2.1. Tarixiy haqiqatning tiklanishi – milliy g‘oyaning tiklanishida obyektiv asos.....	42 - 59
2.2. Milliy g‘oya – millatlararo totuvlikning tarixiy-ma’naviy tayanchi sifatida.....	60 – 72
 XULOSA.....	73 – 77
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	78 – 79

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. Bozor munosabatlariga o'tish, yangi ijtimoiy munosabatlarni qaror toptirish, odamlar ong tushunchasida mustaqillikka bo'lgan sadoqatni shakllantirish, ma'naviy hayotda insof, vijdon, diyonat kabi chin insoniy fazilatlarni rivojlantirish bir-biri bilan chambarchas bog'liq, biri ikkinchisidan ajralmas jarayonlar hisoblanadi.

Qayd etilgan sohalarning barchasiga babbarobar e'tibor berish va bu sohada kutilgan natijalarga erishish uchun oldimizda turgan vazifalarning eng ustivor yo'nalishlarini aniqlab olish taqozo qilinadi. Milliy istiqlol g'oyasi xuddi ana shunday ustivor yo'nalishlardan biridir.

Milliy istiqlol g'oyasining mohiyatini chuqur tahlil qilish, uning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rnini belgilab olish, milliy istiqlol g'oyasini odamlar qalbi va ongiga singdirish masalalari mustaqillikni mustahkamlashning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib turibdi. Chunki «o'zining hayotini, oldiga qo'ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat hech bir davrda milliy g'oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi»¹

O'zbek xalqi ham xuddi ana shunday vaziyatni boshidan kechirmoqda, ya'ni o'z hayotini, oldiga qo'ygan maqsadlarini aniq tasavvur qilgan holda o'z kelajagi haqida qayg'urmoqda. Ayni paytda o'z milliy g'oya va milliy mafkuraga ega bo'lish – bu hayotiy zaruratga aylanib bormoqda.

Butun tarixiy taraqqiyotimizga chuqur nazar solsak, xalqimiz o'z yuksak milliy istiqlol g'oyasiga ko'rsatgan cheksiz sadoqati tufayli ne-ne qiyinchiliklarni yengib o'tdi, bu g'oya tarix sinovlaridan o'tishda uning ruhini ko'tarib, suyanch va tayanch bo'ldi, yuksak ma'naviyatga intilib yashashni o'rgatdi.

Milliy istiqlol g'oyasini chuqur ilmiy tahlil qilish va bu boradagi vazifalarni aniq belgilab olish yana shuning uchun ham muhimki, hozirgi murakkab sharoitda

¹ "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" T. 2000 y. 5-bet.

xalqimiz, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi fikrlardan milliy istiqlol g'oyasining dolzarbligi, bu borada ilmiy tadqiqot olib borishning muhimligi va zarurligi o'z-o'zidan ravshan.

Muammoning tadqiq etilganlik darajasi. Milliy istiqlol g'oyasi Prezident I.A.Karimov tomonidan eng chuqur va dolzarb masala sifatida olimlar oldiga ko'ndalang qilib qo'yilgandan so'ng bu muammoni ilmiy o'rganish keyingi yillarda keng rivoj topdi.

M.M.Xayrullaev, S.Shermammedov, A.Valiev, Q.Xonazarov, J.To'lanov, A.Jalolov, X.Shayxova, D.Alimova, Q.Nazarov, U.Obilov va boshqa bir qator olimlarning risola maqolalari e'lon qilindi. Marhum faylasuf olim, akademik H.Po'latov ham milliy mafkura, milliy g'oya haqida qimmatli fikrlarni ko'tarib chiqqanligi ma'lum. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" nomli dastur qo'llanmaning chop etilishi diqqatga sazovor voqea bo'ldi. Bu risola O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatining ishchi guruhi tomonidan Prezident I.A.Karimov fikrlari asosida tayyorlandi. Risolada milliy g'oya va mafkura tushunchalari, ularning xalqlar va davlatlar tarixiga ta'siri, globallashuv jarayonlari kechayotgan hozirgi sharoitda mafkuraviy siyosatning o'rnini, O'zbekistonning milliy istiqlol g'oyasi, uning asosiy tamoyillarini, xalqimiz, avvalo yosh avlodga qalbiga va ongiga singdirish kabi masalalarni muxtasar tarzda bayon etadi. Ayni vaqtda xuddi mavzuda ma'ruza matnlari ham tayyorlandi.

Milliy istiqlol g'oyasi mavzuini tadqiq etish, haqiqiy ma'noda endi boshlandi, deyish mumkin. Hali bu borada ilmiy izlanishlar qilinishi tabiiy. Bizning tadqiqotimiz shular jumlasidandir.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Biz o'z tadqiqotimizda o'z oldimizga bir qator muhim vazifalarni qo'yganmiz. Ularni quyidagicha tasvirlash mumkin.

- «Milliy g'oya» tushunchasining, eng avvalo, «g'oya» tushunchasining asl mohiyatini tadqiq etish va unga ta'rif berish. «Milliy g'oya» va istiqlol mafkurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab serqirra, insoniyat

tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali-xanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizcha tasavvur qilishimiz kerak, - deb yozadi I.A.Karimov.

- «G'oya», «milliy g'oya» tushunchalarining tarixan tarkib topib, shakllanib rivojlanib kelishi jarayonlarining o'ziga xos tomonlarini tadqiq etish. G'oyaviylik va g'oyasizlikning ijtimoiy taraqqiyotda nechog'liq ta'sirini aniqlash hozirgi paytda yuksak g'oyaviylikni mustahkamlashda uning rolini ko'rsatish:

- Milliy g'oyaning mohiyati va shakllanish jarayonlarini to'g'ri va izchil tadqiq etishda tarixiy haqiqatning roli katta. Tarixiy voqea-hodisalarning haqiqiy, adolatli me'yorlarini aniqlash orqali milliy g'oyaning yuksalish va tanazzulga ketish sabablarini aniqlash. Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda ikki kuch-bunyodkorlik va buzunchilik g'oyalari hamisha o'zaro kurashadi;

- chinakam tarix xaqiqatni aniqlash, milliy g'oyaning turli davrlarda turlicha shakllanganligi darajasini belgilash uchun eng avvalo har bir voqeani, shaxs faoliyatini falsafiy tahlildan o'tkazish zarur. Falsafiy tahlil voqealarning ichki mohiyatiga kirib borish imkoniyatini yaratib beradi.

- milliy istiqlol g'oyasining mohiyati va namoyon bo'lishi xususiyatlarini tadqiq etganda jamiyatda yashovchi o'zga xalqlarning manfaatlarini ham chetlab o'tish mumkin emas.

Tadqiqotning ilmiy uslubiy va nazariy asoslari. I.A.Karimovning milliy g'oya, milliy mafkura, umuman ma'naviyat haqidagi barcha fikrlari biz uchun ham nazariy asos, ham tadqiqot olib borish uslubini belgilab beradi. Uning fikrlarida masalani chuqur har tomonlama tahlil qilish barcha vazifalar ichida eng ustivor yo'nalishlarni belgilash, eng ta'sirchan vositalarni ishga solish borasida haqiqiy tadqiq uchun namuna va ibratdir.

Ko'p yillik tarixga ega bo'lgan tarix falsafasining eng ilg'or g'oyalari milliy g'oyani tadqiq etishda nazariy asos rolini o'ynashi shubhasiz. Sharq va G'arb falsafasidagi eng yuksak ilmiy izlanishlar va ilgari surilgan nazariy xulosalar milliy g'oyaning mohiyatini ochish va unga to'g'ri ta'rif berish uchun samarali manbalari hisoblanadi.

Tadqiqotning manbalari. Milliy istiqlol g'oyasining manbalari haqida gap ketganda quyidagilarni ta'kidlab o'tish zarur, deb hisoblaymiz:

- o'zbek xalqining ko'p ming yillik madaniy - tarixiy merosi;
- O'zbekistonda olib borilayotgan demokratik jarayonlar;
- bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'zbek modeli;
- respublikaning tabiiy - potensial boyliklari;
- xalqimizning ahilligi, me'natsevarligi va fidoiyligi.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari. Milliy g'oyaga doir ko'p qirrali murakkab muammolarni chuqur ilmiy tahlildan o'tkazar ekanmiz, juda ko'p masalalarni yangicha idrok etishga va yangicha ta'riflashga harakat qildik. Shu nuqtai nazardan tadqiqotimizning ilmiy yangiligini quyidagilar bilan belgilash mumkin.

- milliy g'oyani ontologik va gnoseologik aspektlarda olib, alohida tahlil qilish. Asosiy e'tiborni uning ontologik falsafiy ma'nosiga emas, gnoseologik jihatlarini ilmiy yoritishga e'tibor berish:

- ijtimoiy jarayonlarga xos bo'lgan g'oyalarni umuman butun koinot, tabiatdagidan mavjud bo'lganlaridan farqlash uchun «g'oya-zarurat», «g'oya-maqсад» degan tushunchalarni ilmiy iste'molga kiritish;

- g'oyaning milliy darajasini aniqlash uchun uning tarixiylik mezonini asos qilib olish. Milliy g'oyaning rivojlanib yuksaklikka ko'tarilishi yoki tanazzulga uchrashini mana shu tarixiy mezonlarga bog'liq ekanligini yoritish;

- milliy g'oyaning yuksalishi yoki tanazzulga yuz tutishining sub'ektiv omillarini tahlil etish;

- tarixiy xaqiqatni izlamasdan turib, milliy istiqlol g'oyasi milliy g'oyani shakllantirib bo'lmaydi. Tarixiy xaqiqat har qanday sabab va e'tirozlarga o'rin qoldirmaydigan konkret tushuncha bo'lib, har bir voqeaning ijobiy tomonlari bilan birga o'ziga xos salbiy tomonlarni ham tan olishni taqazo etadi. Yuz foiz salbiy, yuz foiz ijobiy hodisa ham bo'lmaydi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyatlari. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish, uni xalqimizning buyuk maqsadlarini amalga oshirish harakatiga

jalb etish uchun eng avvalo uni nazariy jihatdan har tomonlama ishlab chiqarish ob'ektiv zaruriyatdir. Bu borada ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borish, maxsus darslik va qo'llanmalar yaratish-ijtimoiy fan mutaxassislarining muhim vazifasidir.

Shu asnoda qaraydigan bo'lsak, bizning tadqiqotimiz mana shu qo'yilgan masalalarni nazariy ishlab chiqishga qaratilgan. Shuning uchun ham tadqiqotimizning nazariy ahamiyati o'z-o'zidan ravshan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati yuqoridagi vazifalar negiziga qarab chiqiladi. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Endigi vazifamiz shundan iboratki, milliy istiqlol g'oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilikning, ziyolilarimiz ilm fan namoyondalari, avvalo ma'naviy-ma'rifiy soha xodimlari milliy mafkurani takomillashtirish hamda uning asosiy tamoyillarini odamlar ongi va qalbiga singdirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishlari zarur».

Bizning tadqiqotimiz ham mana shu vazifalarga hamoxang tarzda milliy istiqlol g'oyasini yoshlar qalbi va ongiga singdirishda muayyan ahamiyat kasb etadi, deb o'ylaymiz. Biz bu boradagi o'z maslahat va tavsiyalarimizni tadqiqotimiz oxirida va xulosa qismida batafsil bayon etamiz. Bu o'rinda yana bir masalani ta'kidlash kerakki, milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish va uni yoshlar qalbi va ongiga singdirish orqali biz turli tuman ekstremistik kuchlar harakatiga qarshi zarba bergan, yoshlarni ularning ta'siridan omon saqlab qolishga hissa qo'shgan bo'lamiz.

Ishning tuzulishi. Bitiruv-malakaviy ish kirish, 2 bob (4 qism) , xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1 – BOB. G‘OYA TUSHUNCHASI: MOHIYATI, MAZMUNI, MILLIY JIHATLARI

1.1.G‘oya tushunchasi va uning nazariy-falsafiy tahlili

Tarixiy taraqqiyot mantig‘i shundan dalolat beradiki, har bir xalq, har bir millat o‘zining milliy g‘oyasiga ega bo‘lishi zarur. Unda xalqning asriy orzu-umidlari, real hayotiy manfaatlari o‘z ifodasini topadi. Milliy g‘oya tub mohiyati bilan kelajakka, porloq istiqbolga qaratilgan bo‘lib, butun bir xalqni ezgu ishlarga daovat etuvchi dasturga aylanadi. Asosiy gap ana shular orasidan eng muhimlarini, xalqning umumiy manfaatlariga xizmat qiladiganlarini ajratib olishdan iboratdir. Binobarin, har qanday sharoitda ham milliy g‘oyaning bo‘lishi ob`yektiv zaruriyatdir.

Hozirgi paytda jahonda yuz berayotgan o‘zgarishlar xalqimizning milliy an‘analari, mentaliteti, ma’naviy salohiyati va tarixiy tajribasiga mos bo‘lgan milliy istiqloq g‘oyasining nazariy va falsafiy asoslarini yaratishni taqozo etyapti. Mustaqillik o‘zining tub mohiyati bilan jamiyat va har bir inson hayotini yangi bir yo‘nalish bilan, yangi mazmun va g‘oya bilan boyitdi. Odamlarning ichki tuyg‘ularidan tortib eng yirik ijtimoiy voqealargacha ma’lum bir murakkab o‘ziga xos jarayonni boshidan kechirmoqda, bu jarayonni chuqur idrok etish va uni yanada rivojlantirib, boyitib borish hozirgi kunning eng muhim vazifasidir.

Mustaqillik olib kelgan bu jarayon ko‘p qirrali omillardan tashkil topgan bo‘lib, bu omillar o‘z navbatida o‘z ichki rivojlanish xususiyatlariga ega. Bu murakkab o‘zgarishlarning mohiyati va mazmunini to‘laroq tushunish uchun ularga milliy g‘oya nuqtai nazaridan yondashish taqozo qilinadi.

Ilmiy adabiyotlarda milliy g‘oya masalasi to‘g‘risida rang-barang fikrlar bildirilmoqda, uning mohiyatini ochishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu masala ustida to‘xtab o‘tishdan oldin umuman g‘oya tushunchasi va uning falsafiy fikr tarixida tutgan o‘rni to‘g‘risida ma’lum xulosalarga kelish maqsadga muvofiqdir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, g'oyani ontologik va gnoseologik ma'noda tushunish borasida falsafiy fikrlar tarixida rang-barang yondashuvlarga duch kelishimiz mumkin. "G'oya" – ruhning, keyinchalik esa bilimning taraqqiy etgan shakllarini belgilash uchun turli falsafiy tizimlarda keng ishlatiladigan tushuncha hisoblanadi. Darhaqiqat, qadimgi yunon falsufi Platon haqiqiy borliqning transsent olamini belgilash uchun bu tushunchadan keng foydalangan edi. Bu – transsent olam andozasiga ko'ra reallikni his qiladigan narsalardir. Platon fikricha, olam shunchaki jismlar, koinot yoki alohida predmetlar va hodisalargina emas, unda umumiylik alohidalik bilan, koinotga xoslik esa insoniylik bilan birlashib ketadi. Koinot bu o'ziga xos badiiy asardir. U go'zal, u alohidaliklarning yaxlitligidir. G'oyalar olami sifatida koinot ilohiy ma'noga ega. Bu g'oyalar abadiyligi, haqiqiyliigi va go'zalligi bilan maftun etadi. Binobarin, yunon tilida "g'oya" ("ideya") degani oddiy emas, balki aql ko'zi bilan ko'rsa bo'ladigan mohiyat, ibtidodir.

Platonning aytishicha, olam o'z mohiyatiga ko'ra ikki yoqlamadir: u o'zgaradigan, ko'rish mumkin bo'lgan narsalar bilan g'oyalarning ko'rinmas olamidan iborat, ular o'rtasidagi farqni esa anglab yetish lozim. Chunonchi, alohida daraxtlar paydo bo'lishi va yo'qolib ketishi mumkin, ammo daraxt g'oyasi o'zgarmay qolaveradi. G'oyalar olami haqiqiy borliqni bildiradi, konkret, hissiy idrok etiladigan narsalar esa qandaydir borliq bilan yo'qlik o'rtasida turadi: ular g'oyalarning soyasi, ularning rangsiz ko'rinishidir.

G'oya Platon falsafasida markaziy o'rinni egallaydi. Uningcha, narsalar g'oyaning soyasidan boshqa narsa emas. Masalan, biz suvni ichamiz, biroq suv to'g'risidagi g'oyani icha olmaymiz, nonni yeish mumkin, pulni biror yemish bilan ayirboshlash mumkin. Lekin g'oya bu mohiyatdir, uni ko'z bilan ko'rish, his qilish mumkin emas.

Platonning g'oyalarida butun koinot hayoti umumlashtiriladi. Bu g'oyalarga boshqaruvchilik va shakl yaratuvchilik kuchi xos: ular abadiy namuna, andoza, paradigmalar bo'lib, shu tufayli shaklsiz va oqib turuvchi materiya asosida rang-barang narsalar realligi ta'minlanadi.

Shunday qilib, Platon g'oyani birlamchi mohiyat sifatida olib qaraydi. Mutloq g'oya oliy va abadiydir, uni "olam quyoshi", olam Aqli ilohiy aql deb hisoblaydi. Biroq Platon nazarida u hali shaxsiy ilohiy Ruh emas. Platon xudoning mavjudligini insonning xudo tabiatiga o'xshashligini his eta olishi negizida isbot qilishga intiladi. Bu narsa bizning ruhimizda harakat qilishida namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi. Anglashiladiki, Platon dunyoqarashida xudoga ishonch muhim o'rin tutadi. Uning muhim sharti – ijtimoiy dunyoviy tartibning mavjudligidir.

Shunday qilib, narsalar nima, degan masala kun tartibiga qo'yilganda va ularni bilish mumkinligi e'tirof etilganda g'oyalar nazariyasi yuzaga kelgan. Yunon falsafasi Platongacha "ideallik" to'g'risida tom ma'nodagi tasavvurga ega bo'lmagan. Platon "g'oya" ni o'z-o'zicha mavjud fenomen sifatida ilgari suradi, uningcha, g'oya hissiy olamdan alohida yashovchi, mustaqil borliqdir. Bu esa amalda ikki xil olam mavjudligini e'tirof etish bo'lib, u tarixda obyektiv idealizm nomini oldi.

Ko'rinadiki, Platon falsafasining zaminida g'oyalar to'g'risidagi ta'limot yotadi. Narsalar Platon tomonidan faqat oddiy bo'lib ko'ringan empirik-hissiy mavjudlik tarzidagina qarab chiqilmaydi. Har bir narsa uchun eng muhimi uning ma'nosidir. Bu ideya (g'oya) tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, g'oya (ideya) muayyan narsalar turkumiga tegishlidir, har bir narsa uchun ideya mavjud va odatda u birgina nom bilan ataladi. Deylik, otlarning turlari ko'p, chunonchi, mitti va normal, ola va qora, biroq bularning barchasiga tegishli bitta ma'no bor, u ham bo'lsa ot bo'lishlikdir. Shunga ko'ra umuman yaxshilik, umuman go'zallik, umuman uy to'g'risida so'z yuritish mumkin. Demak, g'oya (ideya) rang-baranglikning mohiyatini tashkil etadigan yakkalikdir. Platon yakkalik va rang-baranglikni hal etganda, yakkalik bu g'oyadir, uning namoyon bo'lishi rang-baranglikdir, deb hisoblaydi. G'oyalarning universalligi tufayli ular ham moddiy, ham ma'naviy hodisalarga muvofiq keladi¹.

Platonning ta'limoti neoplatonizm va o'rta asrlar falsafasida yanada taraqqiy qilib, ideyalar endi ideal shakllar tarzida talqin etildi, shunga andoza qilib ilohiy

¹Qaralsin: Spirkin A.G. Filosofiya. M., 2000, S.53-54

aql, keyinchalik Xudoning o'zi narsalarni yaratdi, degan xulosaga kelindi. Shunday qilib, antik zamondan Uyg'onishgacha bo'lgan davrda g'oya sof ontologik ma'noda talqin etildi. Yangi zamonda g'oya ustuvor darajada gnoseologik nuqtai nazardan qarab chiqildi, inson bilishining asosiy shakllaridan biri sifatida e'tirof etildi. G'oyalarning kelib chiqishi va ularning reallikka muvofiq bo'lishi borasida turli xil qarashlar ilgari surildi, natijada u ratsionalizm va empirizmning o'zaro ziddiyatli ko'rinishida gavdalandi. Kantga qadar bo'lgan ratsionalizm g'oyalar "tug'ma", u faqat Subyektgagina xos va uning tajribasiga taalluqli emas, deb hisobladi. Empirizm g'oyada hissiyot bergan ma'lumotlarning umumlashmasini ko'radi, Subyektga esa voqelikni passiv in'ikos ettiruvchi deb qaraladi. Kant falsafasida g'oya bu aqlga tegishli tushuncha, tajribada esa unga hech narsa muvofiq kelmaydi. G'oyalar aqlning hissiy tajribalari chegarasidan chiqishga bo'lgan intilishi jarayonida yuzaga keladi va Kant tomonidan bilishning maqsadini ifodalaydigan tamoyil tarzida izo'lanadi. I.Kant "Muhokama qobiliyatini tanqid" asarida: g'oya, ochig'ini aytganda, aqlning tushunchasi, ideal esa qandaydir ideyaga monand bo'lgan yaxlit mohiyat haqidagi tasavvurdir, deb yozdi ².

Yana bir nemis faylasufi Gegel uchun g'oya bilimlar taraqqiyotining oliy nuqtasidir. Gegel g'oyani rivojlanish jarayonining oliy nuqtasida Subyekt va obyektning mos kelishidagi obyektiv haqiqat deb biladi. XX asr falsafasida g'oya o'zining haqiqiy ahamiyatini yo'qota boshladi va faqat tushunchaning sinonimi sifatida ishlatilmoqda.

Ko'rinadiki, g'oyani ontologik ma'noda tushunish borliqning mohiyatini belgilaganda uning asosini tashkil etuvchi substansiya sifatida olib qaraladi. Biz mazkur tadqiqotimizda g'oyaning ontologik ma'no kasb etishini inkor qilmagan holda uning asosan gnoseologik jihatini ko'zda tutib fikr yuritamiz.

Yangicha qarashlar g'oyani obyektiv reallikning in'ikosi, uning o'ziga xos shakli sifatida olib qaraydi. Unga ko'ra g'oya insonning amaliy faoliyatida, voqealikni o'zgartirishda faol omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, unga turlicha ta'riflar beriladi. Chunonchi, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da

² Qaralsin: Kant I. Sochineniya, v 6 tg., T.5, M., 1966, s. 331

“g‘oya” ikki xil ma’noda tavsiflanadi: u birinchidan, biror ish-harakat qilish haqidagi fikr, o‘y, niyat, maqsad; ikkinchidan, dunyoqarashning asosi, uning muhim tamoyili ³. Ikki jildli “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”da “ideya” atamasining 6 xil ma’nosi beriladi: obyektiv borliqni, voqelikni kishi ongida aks ettiruvchi, ayni zamonda kishining obyektiv borliqqa, voqelikka munosabatini ifodalovchi, kishilarning dunyoqarashlari asosini tashkil etuvchi tushuncha; mafkura, siyosiy g‘oyalar, ilg‘or g‘oyalar; asosiy fikr, maqsad; fikr, o‘y, maqsad, niyat; reja, fikr bermoq; asosiy g‘oya, tuzilish prinsipi”⁴. «Sovetskiy ensiklopedicheskiy slovar” da g‘oya xususida shunday deyiladi: “g‘oya-obyektiv reallikning fikrda in’ikos etuvchi shakldir”⁵. Voqelikning ichiga kirib borib, g‘oya olamni yanada chuqurroq bilish va amaliy o‘zgartirish maqsadlarini anglashni o‘z ichiga oladi. G‘oya bilimning oldingi rivojlanish tajribalarini umumlashtiradi va voqealarni tushuntirish tamoyili bo‘lib xizmat qiladi. Reaksion g‘oyalar voqelikni bo‘yab ko‘rsatadi, ijtimoiy taraqqiyot yo‘lidagi ovga aylanadi. Ilg‘or g‘oyalar ijtimoiy borliqni haqqoniy aks ettirib⁶, ijtimoiy taraqqiyotga muvofiq keladi⁷. Ana shunday fikrni “Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar” da ham ko‘rishimiz mumkin: “g‘oya obyektiv reallik voqealarini fikrda anglab yetish shaklidir. U bilishning va olamni amaliy o‘zgartirishning maqsadlari va yanada taraqqiy etish proeksiyalarini o‘z ichiga oladi”⁸. Shunday qilib, g‘oyani gnoseologik jihatdan tushunishning negizida reallikni bilish va o‘zlashtirish maqsadlarini ifodalovchi fikr yotadi, “g‘oya – inson tafakkuri mahsuli”⁹.

G‘oya to‘g‘risidagi qarashlar nafaqat tarixda, balki bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda respublikamiz olim va tadqiqotchilari mazkur muammo bilan qizg‘in shug‘ullanayotganliklari tabiiy bir hol. Shularning ayrimlari bilan tanishishning o‘zidayoq mazkur muammoning naqadar dolzarb,

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. - M.; 1981 2-tom 663-bet

⁴ Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”(M.1983, t.1, 371-bet)

⁵ Sovetskiy ensiklopedicheskiy slovar

⁶ Noveyshiyy filosofskiy slovar. Minsk, 1999, s. 257

⁷ O‘sha joyda, M., 1984,s.475-476

⁸ O‘sha asar, M.,1983, s. 201.

⁹ Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.:«O‘zbekiston», 2000, 64-bet.

hayotiy, muhim ma'naviy omil va kishilarni harakatga keltiruvchi kuch ekanligidan dalolat beradi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mazkur masala Prezidentimiz I.A.Karimovning milliy g'oya va mafkuraga bag'ishlangan uchrashuvda bayon etgan fikrlari, "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblaridan keyin yanada muhimroq ahamiyat kasb eta boshladi.

S.Shermuhamedov milliy g'oya to'g'risida fikr yuritishdan oldin umuman "g'oya" konsepsiyasining mazmunini ochish lozimligini uqtiradi. Uningcha, "g'oya inson ongining borliqqa ratsional munosabat ko'rsatishi, uning obrazini shakllantirish; uning mohiyatiga kirib borish va ifodalash qobiliyatining namoyon bo'lishi, ideyalar, maqsadlar tarzida gavdalanadi"¹⁰.

Shuni ta'kidlash kerakki, aksariyat olimlarimiz "g'oya" va "milliy g'oya"ni asosan nazariy jihatdan olib tahlil etishmoqda. Ammo milliy g'oya garchi ruhiy jarayon, ongning mahsuli sifatida ko'zga tashlansa-da, aslida milliy g'oya nechog'lik nazariy qimmatga ega bo'lsa, shunchalik amaliy ahamiyatga ham molikdir. S.Shermuhamedov "milliy g'oya" haqida gap ketganda bu murakkab hodisaning ham nazariy, ham amaliy tomonlariga alohida e'tibor beradi. Uning fikricha, milliy g'oyani, uning mohiyati, bunyodkorlik qudratini tushunmoq uchun uning ildizlarini, manbalarini – ijtimoiy guruhlar va yakka shaxslar ongini hamda millat ongini buyuk maqsadlar, ishlar, rejalarga ilhomlantiradigan, yuksak ideallar bilan oziqlantirgan va oziqlantirib kelayotgan teran tomirlarini tadqiq etish zarur.

Darhaqiqat, bu erda millatni buyuk maqsadlar, rejalarga da'vat etadigan yuksak ideallar bilan oziqlantiradigan omillar xuddi shu milliy g'oyani harakatga keltiruvchi kuchlardir. Yuksak g'oyaviylik millatni ulkan zafarlarga ilhomlantirsa, g'oyasizlik, mafkuraviy "bo'shliq" yoshlarni parokandalik va turg'unlikka mahkum etadi. Ammo milliy g'oya buyuk yaratuvchan kuchga aylanishi uchun u xalqning, millatning real ehtiyojlarini aks ettirishi va bu ehtiyojlarni qondirishning kuchli vositasiga aylanishi kerak. Bu borada S.Shermuhamedovning quyidagi

¹⁰ Shermuhamedov S. Milliy g'oya va uning ijtimoiy taraqqiyot(progress)dagi o'rnini. //Mustaqil O'zbekiston: falsafa fanlarining dolzarb muammolari. VII kitob.T.2000, 16-bet

fikrlari e'tiborga loyiqdir: "milliy g'oya o'tmish va hozirning ijobiy ma'naviy potensialini o'zida ifoda etadi, uni yanada o'rganish, o'zlashtirish va amalga oshirish inson, millat, xalq, jamiyat hayotining hamma sohalarida mujassam etishga yo'nalish beradi"¹¹.

O.Fayzullaev g'oya tushunchasiga sof gnoseologik nuqtai nazardan yondashadi: "g'oya har bir odam qalbidagi e'tiyojning miyadagi in'ikosi. Odamlar har xil bo'lganidan, ularning g'oyalari ham har xil bo'lishi mumkin. G'oya to'g'ri bo'lishi mumkin, buning mezoni xalq manfaatlariga mosligi. Shu bilan birga, g'oya noto'g'ri bo'lishi mumkin, bunga misol – diniy ekstremistlarning kallakesarlik, qo'poruvchilik, terrorchilik g'oyalari"¹².

Bu fikrlar nazariy jihatdan to'g'ri, ammo bu yerda g'oya qaysi paytda to'g'ri bo'ladi-yu, qaysi paytda noto'g'ri bo'ladi, degan masaladan chetlab o'tiladi. Bizningcha, masalaning o'zagi shundadir. G'oyaning nimaligini tushuntirib berish qiyin emas. Biroq, masalaning ikki jihati bor: birinchidan, g'oyaning to'g'ri yoki xatoligi, progressiv yoki reaksiionligi qaysi jihatlari bilan namoyon bo'ladi? Ikkinchidan, umuman milliy g'oya qanday qilib va qaysi yo'llar bilan odamlarning qalbidan joy oladi.

O.Fayzullaevning yuqoridagi fikrlariga asoslanadigan bo'lsak, g'oya qalbdagi e'tiyojning miyadagi in'ikosidir, degan fikr kelib chiqadi. Demak, oldin ehtiyoj, keyin g'oya vujudga keladi, ehtiyoj g'oyani tug'diradi, ya'ni ehtiyojni qondirish maqsadga aylanadi. Maqsad esa ehtiyojni qondirish yo'llarini belgilab beradi, ya'ni g'oya insonni o'z e'tiyojlarini qondirish uchun harakatga da'vat etadi, chorlaydi. Lekin hamma gap bunda qanday usullarga tayanish lozimligini aniqlashdadir. Demak, g'oya progressiv, ijobiy bo'lishi uchun e'tiyoj real, insoniy mazmunga ega bo'lishi darkor. Ehtiyoj, g'oya, maqsad - bular birgalikda inson imkoniyatlari doirasida kechishi zarur. Inson o'z imkoniyatlari doirasini aniq belgilashi, shundan kelib chiqib o'z oldiga muayyan maqsadni qo'yishi kerak.

¹¹ Shermuhamedov S. Yuqoridagi asar. 17-bet.

¹² Fayzullaev O. Milliy mafkura va milliy g'oya metodikasi.// Mustaqil O'zbekiston: falsafa fanlarining dolzarb muammolari. VII kitob. T.. 2000, 22-bet.

Masalan, badavlat bo'lish orzusi yomon emas. Boy bo'lish uchun inson qalbida kuchli ehtiyoj paydo bo'lsa va u miyada aks etib g'oyaga aylansa, g'oya bu e'tiyojni qondirish uchun insonni harakatga keltirsa, bu jarayonlar shu joydagina insoniylik doirasida kechadi. Ammo boy-badavlat bo'lish g'oyasi turli yo'llar bilan: halol mehnat yo'li bilan, xarom, firibgarlik, munofiqlik yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. U holda ham, bu holda ham inson boylikka erishadi. Ammo ikki yo'l bilan, bir-biriga zid bo'lgan ikki usul bilan buni qo'lga kiritgan bo'ladi. Mana shunday tarzda dastavval insoniylik doirasida paydo bo'lgan g'oya ehtiyojni qondirish jarayonida turlicha mazmun va mohiyat kasb etishi ehtimoldan yiroq emas.

O.Fayzullaevning quyidagi fikrlari ancha munozaralidir: "Mafkura tushunchasi "g'oya" tushunchasidan kengroq bo'lib, umumdavlat miqyosida ishlatiladi". Bizning nazarimizda, mafkura g'oyaga nisbatan kengroq tushuncha emas, balki aksinchadir. G'oyani tor ma'noda, ya'ni ilmiy g'oya, diniy g'oya, falsafiy-axloqiy g'oya kabi ma'nolarda qo'llanilganda shunday bo'lishi ehtimol. Lekin g'oyani katta ijtimoiy kuch sifatida talqin etganda mafkura g'oyani amalga oshirish usuli, desak xato bo'lmaydi. Bu o'rinda adabiyotshunos Sultonmurod Olimning quyidagi fikrlarini qo'llab-quvvatlash mumkin: "milliy mafkura-mohiyatan milliy g'oyaga etish yo'li. Nima qilinsa shu g'oyaga intilish tezlashadi, osonlashadi, qanday ish tutilsa, mazkur g'oyaga zid harakatlarning yo'li to'siladi-milliy mafkura aynan ana shu savollarga javob beradi. Ilmiy tarzda aytganda, milliy g'oya nazariya bo'lsa, milliy mafkura-amaliyot. Yoki milliy g'oya strategiya bo'lsa, milliy mafkura- taktika"¹².

A.Valiev ta'kidlaydiki, «Mafkura milliy g'oyani amalga oshirishga xizmat qilishi kerak»¹³. Bundan milliy g'oyaning mazmuni, ko'lami mafkuraga nisbatan keng degan mantiqiy fikr kelib chiqadi.

A. Ibrohimov bu ikki tushuncha o'rtasidagi aloqadorlik haqida gapirar ekan, shunday mulo'azani o'rta tashlaydi: "Mafkura atamasi harakatga keltiruvchi,

¹² Olim S. Xalq tayanadigan kuch. //Tafakkur, 2000, 3-son, 6-bet

¹³ Mustaqil O'zbekiston: falsafa fanlarining dolzarb muammolari.VII-kitob,15-bet

harakatdagi g'oya degan ma'noni, niyatni maqsadga aylantirishga undovchi degan ma'noni anglatadi”¹⁴.

Ba'zi tadqiqotchi olimlarimiz maqolalarida milliy g'oya masalasini milliy ong taraqqiyoti bilan bog'lab tushuntirishga intilish ko'zga tashlanadi.”Har bir millat o'z ongini o'z manfaatlari va o'z vazifalari hamda maqsadlariga muvofiqlashtiradi”, - deb yozadi prof. Q.Xonazarov.¹⁵ Darhaqiqat, faylasuf olimning aytganlari bevosita milliy g'oya masalasiga daxldordir. Gap shundaki, birinchidan, ong maqsadlarga muvofiqlashadimi, yoki maqsadlar ongga muvofiqlashadimi? Ikkinchidan, umuman masalani xuddi shunday tartibda qo'yish o'rinlimikan? Holbuki, barcha maqsadlar aslida dastavval ong doirasida paydo bo'ladi, so'ngra ular faoliyat hodisasiga aylanadi. Xalqning maqsadlari yuksak bo'lsa, uning ongi ham yuksak bo'lmog'i lozim. Yuksak ong yuksak maqsadni tug'diradi, ammo ongi past xalq o'z oldiga yuksak maqsadlar qo'ya olmaydi. Bu haqiqatni jadidlar o'z vaqtida to'g'ri anglab ko'rsatib o'tgan edilar.

O'.Abilov mazkur masala yuzasidan bildirgan mulohazalarini aksariyat hollarda keng va umumiyroq tarzda ifodalaydi. “Bizningcha, - deb yozadi O'.Abilov, - milliy g'oya barcha sohalarida mavjud milliy davlat manfaatlarini o'zida ifoda etgan holda orzu qilingan kelajak jamiyatning asosini yaratish, mustahkamlash va rivojlantirish uchun umummaqsad yo'nalishidagi harakatlar mazmunini uyg'otuvchi fikrdir”¹⁶.

Bizningcha, bu ta'rif juda umumiy va mavhumdir.

Milliy g'oya to'g'risida K.Nazarov, O.Yusupov, H.Aliqulov va boshqalarning asarlarida ham batafsil fikr yuritiladi. Bu sohada A.Ochildievning tadqiqotlari ancha qiziqish uyg'otadi. A.Ochildiev g'oyaga shunday ta'rif beradi: “g'oya-voqelikni in'ikos ettirish, bilishning o'ziga xos shaklidir. Har qanday g'oya, birinchidan, voqelikni o'rganish natijasida hosil bo'lgan bilim sifatida vujudga keladi, ikkinchidan, uni o'rganish va o'zgartirishning yangi yo'nalishlarini, ya'ni

¹⁴ Ibrohimov A. Bizkim, o'zbeklar. –T., 1999, 220-bet.

¹⁵ Xonazarov Q. Milliy ong va milliy mafkura.//Mustaqil O'zbekiston: falsafa fanlarining dolzarb muammolari. VII kitob. 25-bet.

¹⁶ Abilov O'. Milliy g'oya-xalqni yetaklovchi kuch.//Muloqot, 2000, 4-son, 7-8 betlar.

maqsadni ifodalaydi. Demak, g'oya voqelikka aylanmog'i mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda g'oya ulkan yo'naltiruvchi vazifani o'taydi. U yo'naltiruvchilik mohiyatiga ko'ra esa ijobiy ham, o'ta salbiy ham, shakliga ko'ra esa uyushtiruvchi ham, buzg'unchi ham bo'lishi mumkin"¹⁷.

Bunda g'oya tushunchasiga ham nazariy, ham amaliy yondoshishga intilish borligini ta'kidlash joizdir. G'oyani nazariy jihatdan tahlil qilish amalga oshirilganda insonning voqellikka munosabati bosh omil rolini o'taydi. Insonning voqelikka to'g'ri munosabatda bo'lishi va uni to'g'ri baholashi g'oyaning izchilligi va hayotiyligini ta'minlaydi. G'oyaning amaliy tomonini oladigan bo'lsak, g'oya katta nazariy bilim sifatida insonni voqelikni o'zgartirishga, uni yangilashga, ayrim salbiy hodisalardan tozalashga da'vat etadi. Buning uchun g'oya odamlarning e'tiqodiga, vijdon ishiga aylanmoi kerak.

Yuqoridagilar shunday xulosa kelib chiqadi: murakkab va serqirra milliy g'oya tushunchasining mohiyatini to'la ochish uchun mavjud konsepsiyalarni e'tirof etgan holda uning tarixiy-falsafiy talqiniga ham ko'proq e'tiborni berish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun milliy g'oyaning tarixan tarkib topishi va jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchiga aylanish jarayonini tahlil etish lozim.

Jamiyat hayotining ichki qatlamlarini ko'z oldimizga keltirsak, bir-biri bilan uzviy bog'langan tarkibiy qismlarning harakatiga nazar solsak, asosan ikki muhim omil - moddiy va ma'naviy tomonlarning birligiga duch kelishimiz mumkin. Jamiyat hayotini moddiy va ma'naviy tomonlarga ajratish o'ta shartlidir. Marksizmning moddiy tomon ma'naviy tomonsiz mavjud bo'la oladi, ammo ma'naviy tomon moddiyatsiz mavjud bo'la olmaydi, degan aqidasi o'zini oqlamadi. Chunki hayotda, jamiyatning yashash va rivojlanish tartibida moddiy tomon bilan ma'naviy tomon o'rtasida chegarani topish amri maholdir.

Masala faqat mavjudlik shaklida qo'yilmasligi kerak. Moddiy tomonning mavjudligi eng avvalo uning yashovchanligi, rivojlanishi, o'zgarib yangilanib turishida namoyon bo'ladi. Moddiy tomonning yashash tarzi, rivojlanishi, o'zgarib

¹⁷ Ochildiev A. Milliy g'oyamiz asoslari.//Tafakkur, 2000, 3-son, 110-bet

yangilanib turishi ma'naviy tomonsiz voqe bo'lmaydi. Moddiy tomon ma'naviy tomonsiz o'z qiyofasini, mazmunini, mohiyatini yo'qotadi. Demak, mavjudlik bu yashovchanlikdir, bu rivojlanish, bu o'zgarishdir, mavjudlik muayyan maqsadga xizmat qilishdir. Masalan, inson vafot etganidan so'ng uning tanasi o'z mohiyatini yo'qotadi. Garchand uning butun tana tuzilishi, organlari joyida turgan bo'lsa ham, ammo bu tana, barcha organlar tiriklikda ma'lum mohiyatga, ma'lum mazmunga, ma'lum o'zgarish va rivojlanishga egadir. Mavjudlik doimiy faollik, o'zgarish, ma'lum maqsadga xizmat etishdir. Yoki boshqa bir misol olaylik. Eng zamonaviy andoza asosida tayyorlangan dastgoh hali o'rnatilmagan, ishga tushirilmagan bo'lsa, u hali o'z mohiyati va mazmuniga ega bo'lmaydi, ya'ni mavjudlik shakliga o'tmaydi. U inson aql-zakovati tufayligina mazmun va qimmatga ega bo'ladi. Dastgohni o'rnatib, ishga tushirganimizdan so'ng u o'zining haqiqiy mohiyatiga ega bo'ladi, u endi o'zining haqiqiy mavjudligini namoyon eta boshlaydi. Demak, bu dastgoh ma'naviy tomon tufayligina moddiy buyum sifatida ko'zga tashlana boshlaydi. Moddiy tomon harakatga kelishi uchun nimadir bo'lishi kerak, shu nimadir-ma'naviy tomon tufayli harakat qiladi. Ma'naviy tomon moddiy tomonsiz, xuddi shuningdek, moddiy tomon ham ma'naviysiz haqiqiy ma'noga voqe bo'la olmaydi.

Demak, ma'naviy tomon deganda yashash, o'zgarish, rivojlanish, ma'lum maqsadning amalga oshishini tushunamiz. Moddiy tomon deganda yashash, o'zgarish, rivojlanish jarayoni-ma'lum maqsadning amalga oshish jarayonining asosini tashkil etuvchi mavjudlikni ko'zda tutamiz. Yuqoridagilarga asoslanib turib moddiy va ma'naviy tomonlarning birligi jamiyat va inson hayotining asosi, harakatga keltiruvchi kuchdir, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

“Agar ma'naviyat va iqtisodiyotning o'zaro ta'sirini funksional yondashuv asosida tahlil etsak, - deb yozadi A.Erkaev, - ular ancha murakkab va rang-barang, ayni paytda har birining yuksalishida o'zaro mutanosiblik beqiyos ahamiyat kasb etishini ko'ramiz. Masalan, mehnat axloq bilan uyg'unlashmasa, iqtisodiy munosabatlar jarayonida ma'naviyat masalalari, xususan insonparvarlik me'yorlari etarlicha hisobga olinmasa, texnokratik qarashlar ustunlik qilib ketadi, oqibat-

natijada ishlab chiqarish hajmi ortgani bilan insoniy munosabatlar zavolga yuz tutadi, jamiyatda o'zaro begonalashish tamoyili kuchayadi"¹⁸.

Ma'naviyat va iqtisodiyotning bir-biri bilan ajralmasligi, birining ikkinchisiz mavjud bo'lmashligi yuqorida to'g'ri ko'rsatilgan. Ammo bu erda texnologik jarayonlar va insonparvarlik g'oyalari bir-biriga mos tushmasa, yoki ishlab chiqarish hajmi ortgani bilan insoniy munosabatlar zavolga yuz tutadi, deganda, iqtisodiyot va ma'naviyat ikkita narsa-yu, ularni birlashtirish kerak, degan fikr tug'iladi. Holbuki, iqtisodiyot va ma'naviyat ikkita narsa emas, balki prinsip jihatidan bir narsadir, bir jarayondir. Ma'naviyat past bo'lsa, yoki ma'naviyat toptalsa, qanday qilib ishlab chiqarish hajmi ortishi mumkin, ishlab chiqarish-butunlay izdan chiqadi, deyish to'g'riroq bo'lmaydimi?

Ko'rinib turibdiki, iqtisodiyot va ma'naviyat o'rtasidagi birlik va uzluksizlikni milliy g'oyasiz tushuntirib bo'lmaydi. Milliy g'oya tufayligina iqtisodiyot ma'naviy yuksalishning muhim omili va vositasiga aylanadi.

Ijtimoiy jarayonlar ham ichki, ham tashqi aloqalar tufayli, ham obyektiv va Subyektiv omillarning uyg'unlashuvi tufayli ma'naviy va iqtisodiy tomonlarning yagona, bir-biridan ajralmas jarayonga aylanishini tasavvur qilish uchun hayotiy voqealarning ich-ichiga kirib borish va undagi har bir tomonning boshqa tomonlar bilan uzviy zanjir hosil qilishini idrok eta bilmoq zarur. Iqtisodiy va ma'naviy tomonlarning yagonaligi, yaxlitligini inson organizmiga qiyoslash mumkin. Organizmning normal yashashi va faoliyat ko'rsatishi uchun yurak muhimmi, jigar muhimmi, o'pka muhimmi, degan savolni shu tariqa qo'yib bo'lmashligini, hammasi ham o'z o'rnida, o'z funksiyasiga ko'ra muhimligini, birining xastalanishi, albatta ikkinchisining faoliyatiga zarba bo'lib tushishini tasavvur qilish unchalik qiyin emas. Ammo inson organizmining barcha bo'g'inlari o'rtasidagi aloqani yo'lga qo'yuvchi, uni mustahkamlab boruvchi bosh nuqta - bu miya faoliyati ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak, xuddi shu miya faoliyati inson organizmining yashovchanligini ta'minlovchi bosh g'oya ekanligini aytib o'tish lozim.

¹⁸ Erkayev A. Bir-birini taqozo etuvchi ikki zaruriyat.//Muloqat, 2000, 3-son, 21-bet

Yana ta'kidlash joizki, milliy g'oyaning mohiyatini moddiy va ma'naviy tomonlarning mohiyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shunga ko'ra bu muammoga daxldor bo'lgan fikrlarni bayon etamiz. Bizningcha, faqat shu yo'l, ya'ni moddiy va ma'naviy tomonlarning mohiyatini chuqur tahlil qilish, ular o'rtasidagi uzviy birlikning ichki sir-asrorlarini ochish orqali milliy g'oyaning haqiqiy falsafiy-tarixiy talqinini topish, aniqlash mumkin bo'ladi.

Bu yerda yuqorida tahlil etganimiz "g'oya" tushunchasi bilan "milliy" degan tushunchaning o'zaro aloqasi haqida to'xtab o'tish lozim. Shuni tan olish kerakki, "g'oya" tushunchasi asosan adabiyot va sanoat sohasida keng ishlatilib kelinar edi. Mazkur muammoga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda badiiy asar g'oyasi unda ifodalangan ezgu maqsadlarning majmuidan iborat deb talqin qilinadi. Darhaqiqat, san'atkor barcha voqealarni, obrazlarni muayyan g'oya atrofiga birlashtiradi, o'z oldiga qo'ygan bosh maqsadni ochib berishga harakat qiladi.

"G'oya" tushunchasining keng va tor ma'nolari bor. Tor ma'noda "g'oya", yuqorida aytilganidek, bu ma'lum maqsad demakdir. Har bir inson, kishilar guruhi, jamoa, davlat yashar va ongli ravishda olg'a qarab harakat qilar ekan, demak, o'z oldiga muayyan maqsadni qo'yadi. Bu maqsadga erishish uchun qilingan barcha harakatlar ijtimoiy rivojlanishning ma'lum tomonini tashkil etadi. Odamlar, jamoalar, uyushmalar, korxonalar va jamiyatda mavjud barcha kuchlarning o'z maqsadlariga erishish uchun qilgan, amalga oshirgan harakatlari ijtimoiy harakatni vujudga keltiradi.

"G'oya" tushunchasining keng ma'nosi shundaki, moddiy va ma'naviy tomonlarning birligi, o'zgarishi va rivojlanishi g'oyasiz amalga oshmaydi. G'oya moddiy va ma'naviy tomonlarga tashqaridan olib kirilmaydi, balki hayotning ichki rivojlanish mantig'idan hosil bo'ladi. U moddiy va ma'naviy tomonlarni birlashtiradi, ularga yo'nalish beradi va shu tariqa rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, o'zimiz tanlagan mustaqil taraqqiyot yo'lida aniq marralarni ko'zlab yashashimizda, pirovard maqsadimiz bo'lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish

borasidagi intilishimizda biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbai, ilmiy asos – bu milliy g'oya, milliy mafkura bo'lishi kerak¹⁹.

Demak, g'oya keng ma'noda olib qaraganda, u harakat, o'zgarish, rivojlanishni bildiradi. G'oyaning falsafiy mohiyati ana shundan kelib chiqadi, falsafiy ma'noda g'oya taraqqiyotning tabiatini ochib beradi. Biroq, bazi hollarda g'oya rivojlanishga zid kelib qilishi ham mumkin. G'oya ijtimoiy harakatning mohiyati va manfaatidan kelib chiqmasa, ijtimoiy taraqqiyotga tashqaridan olib kirilsa, mana shunday murakkab holat kelib chiqadi. Bunday ziddiyatli holatlar baozan halokatli natijalarga olib keladi. Fashizm juda katta va kuchli ijtimoiy harakat sifatida maydonga keldi. Biroq u taraqqiyotni tezlashtiruvchi harakat tarzida emas, balki unga zid holda amal qildi. Fashizmning asosiy g'oyasi taraqqiyotning ichki mazmunidan kelib chiqmagan edi, bu g'oya natsistlar tomonidan sunoiiy ravishda ishlab chiqilgan, eng muhimi, ijtimoiy harakatga zo'rlab kiritilgan edi. Boshqa xalqlarni asoratga solish, bosqinchilik, qirin, barcha millatlarni o'ziga bo'ysundirish, nemis millatining "ulug'" ligini tarannum etish g'oyasi kishilik jamiyati taraqqiyoti va mezonlariga zid bo'lganligi uchun u halokatga uchradi. Kommunizm g'oyasi to'g'risida ham shunday xulosa chiqarish mumkin.

Har bir harakat (xoh u shaxsiy, xoh ijtimoiy bo'lsin) mohiyatini uning negizida turgan g'oyalar asosida aniqlab olish mumkin. Vahhobiylar va boshqa diniy ekstremistik kuchlarning asl qiyofalarini ochib tashlash uchun ular asos qilib olgan g'oyalarga ehtiborni qaratish zarur.

Ma'lum g'oyaning taraqqiyotga zid yoki zid emasligini bilish oson emas. Chunki ko'p g'oyalar bir qarashda ancha jozibador bo'lib ko'rinishi mumkin, biroq ularni insoniylik me'yorlariga taqqoslab ko'rsak, shunda bu "jozibadorlik" ortida chirkin maqsadlar yashiringanligini bilib olamiz. Chirkin maqsadlarni o'zida yashirgan usti yaltiroq, ichi qaltiroq g'oyalarga qarshi kurashish uchun chinakam insoniylikka xizmat qiladigan, ijtimoiy taraqqiyotning tabiiy jarayonlari mu'itiga to'la mos keluvchi, inson qalbiga etib, unga kuch-quvvat bag'ishlovchi g'oyalarni

¹⁹ Karimov I.A. Xushyorlikka davat. –T., O'zbekiston, 1995, 17-bet

ishga solish zarur, “barcha ma’rifiy mamlakatlarda bo’lganidek, g’oyaga qarshi g’oya bilan kurashish” zarur.

Umuman “g’oya”, xususan “milliy g’oya” tushunchalarining mohiyatini chuqurroq anglab etish uchun o’tmishdagi mutafakkirlar, xususan, jadidlarning asarlarini chuqurroq o’rganish ayni muddao ekanligini ta’kidlashimiz lozim. Ma’lumki, jadidlar o’z zamonasining o’qimishli, yuksak ma’rifatli allomalari bo’lib, faqat nazoratchisi emas, balki eng avvalo tashabbuskor, izchil faoliyat egalari, kelajakning kurashchan yaratuvchilari edi. Ham yuksak bilim, ham nazariy izchillik, shu bilan birga bilim va g’oyalarni hayotga tatbiq etish uchun dadil kurashga otlangan jadidlar g’oyaning, milliy g’oyaning jamiyat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi omil ekanligini teran anglaganlar, bu haqda chuqur ma’noli fikrlar bayon etganlar. Fikrimizning dalil-isboti sifatida respublikamiz matbuotida e’lon qilingan ba’zi ilmiy tadqiqotlarni keltirish mumkin. – Ismoil Gaspirinskiy 1895 yilda yozgan maqolalaridan birini “G’oya” deb atagan edi, - deb ta’kidlaydi prof. B.Qosimov. – Uningcha, hayotdagi barcha buyuk voqealarning tagzaminida muayyan g’oya yotadi. Eng ulug’ kashfiyotlar, avvalo, ular haqidagi orzu-niyatlardan boshlanadi. Millatni zaiflashtiruvchi, turg’unlikka, tanazzulga olib boruvchi narsa – aynan mana shu g’oyasizlik, maqsadsizlikdir. Taassufki, Rusiyaning musulmon jamiyatida asl va chinakam g’oya, orzu yo’q. Ular yolg’iz shu kunning, shu daqiqaning manfaati, shu birgina qorinni to’qlab olish manfaati bilan yashaydilar va hozirgidan bir necha marta yaxshiroq ishlamoq va yashamoq mumkinligini bilmaydilar²⁰.

Ijtimoiy hayotdagi qoloqlikning bosh sababi g’oyasizlik ekanligini ko’rsatib berish nafaqat XIX asrning oxiri XX asr boshlari uchun, balki yuz yildan so’ng ham bugungi kunda ham jahon xalqlari taqdirida, xususan o’zbek xalqi hayotida hayotiy ahamiyat kasb etadi. Binobarin, g’oyasizlik ijtimoiy xatti-harakat va voqealarning mohiyatiga befarq qarash, ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish mas’uliyatini his etishdan qochishdir, g’oyaviylikka zid bo’lgan hodisadir.

²⁰ Qosimov B. Jadidlar va milliy mafkura. Tafakkur, 2000, 3-son, 29-30 betlar.

G'oya haqidagi masalaning faqat nazariy jihatdan qarab chiqilishi muammoning mohiyatini to'la hal qilishda etarli emas, deb hisoblaymiz. Muayyan g'oyaga sadoqat, uni amalga oshirishga bo'lgan fidoyilikni tarbiyalamasdan turib, g'oyaning hayotga tatbiq etilishiga erishib bo'lmaydi. Shu sababli Prezidentimiz I.A.Karimov mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab g'oyasizlikka qarshi keskin kurash olib bormoqda, mafkuraviy bo'shliqning tarixiy-siyosiy, ma'naviy jihatdan salbiy oqibatlarini alohida ta'kidlab kelmoqda.

“Har qanday inson, tabiiyki, murod-maqsadsiz yashay olmaydi. Binobarin, toki hayot mavjud ekan, mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlari bor ekan, ular o'z taraqqiyot yo'lini, ertangi kun ufqlarini o'zining milliy g'oyasi, milliy mafkurasi orqali belgilab olishga intiladi”²¹.

Shubha yo'qki, ana shunday maqsadlarga erishish, uning ko'lami va miqyosilarini chuqur anglab yetish, eng muhimi, ana shunday maqsadlar uchun fidoyilarcha me'nat qilish, faollik ko'rsatish g'oyaviylik tushunchasi bilan uzviy bog'langandir. Binobarin, g'oyaviylik inson va jamiyatning ma'naviy yetakchi kuchi bo'lib, nazariyada ham, amaliyotda ham ana shu g'oya, maqsad uchun izchil sodiqlikdir. Albatta, g'oyaviylikni ta'minlash uchun, birinchidan, g'oyani bilish, ikkinchi tomondan, unga e'tiqod qo'yish, hayotiy faoliyat negiziga qo'yish zarur, bu narsa muayyan muhitda yuz beradi, bir tomondan, muayyan turmush qoidalari, talablariga amal qilish, ikkinchi tomondan, ularning g'oyaviy mazmunini-maqsadini ongli ravishda tushunishni taqozo qiladi, mana shu ikkala omilning dialektik birligi g'oyaviylikni ifoda etadi. Shu ma'noda g'oya, milliy g'oya har qanday jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtiradigan, uning muddaolariga erishishini ta'minlaydigan ma'naviy-ruhiy poydevor hisoblanadi. “Gap mana shu masalaning, shu haqiqatning butun jamiyatimiz, xalqimiz uchun naqadar dolzarb ekanligini e'tirof etishda, mohiyatini chuqur anglab, oldimizda turgan ulkan vazifalarni amalga oshirishda uni engilmas kuchga aylantirishdadir»

²¹ Karimov I.A. Milliy istiqbol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –T., O'zbekiston, 2000, 6-bet

Endi “milliy” degan tushuncha to‘g‘risida to‘xtab o‘taylik. Shu asosda “milliy g‘oya” iborasining mohiyatini ta’riflash mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda “milliy”, “milliylik” degan tushunchalar juda ko‘p ishlatiladi. “Milliy til”, “milliy madaniyat”, “milliy an’analar”, “milliy munosabatlar”, xullas shularga o‘xshab o‘nlab iboralar borki, ular ancha ommalashib ketgan. Ammo “milliy g‘oya” iborasi bu - deyarli yangilik. “Milliy g‘oya” tushunchasini biz mustaqillik yillarida, xususan, keyingi davrda keng qo‘llay boshladik.

Milliy g‘oya tushunchasi tilimizda endi asosiy maqomga ega bo‘lib, keng iste’molga kirgan ekan, demak, uning real ma’nosi to‘g‘risida yuqorida ba’zi fikrlarni bayon etdik.

Umuman g‘oyaning mohiyat va mazmunini aniqlab olar ekanmiz, uning milliy qiyofa kasb etishi masalasi muhim ahamiyatga molikdir. Shunday ekan, milliy g‘oya qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi, uning asosiy belgilarini aniqlab olish zaruriyati tug‘iladi. Shu nuqtai nazardan milliy g‘oya quyidagi muhim xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi: birinchidan, milliy g‘oya millatning, xalqning tub, asl ehtiyojlaridan, izchil turmush tarzi tabiatidan, asriy an’analari, urf-odatlarini, qadriyatlaridan, o‘zligidan, eng muhimi, real imkoniyatlaridan kelib chiqadi; milliy g‘oya negizida milliy o‘z-o‘zini anglash yotadi. Bu jarayonni bilish g‘oyaning vujudga kelishini ta’minlaydigan obyektiv omillarni va bu g‘oya evolyusiyasini, milliy g‘oyaning asosiy darajalari va chegaralarini, unga aloqador bo‘lgan Subyektlarni anglab etishni taqozo qiladi. Ikkinchidan, shu bilan bir qatorda g‘oya millat tomonidan e’tirof etilishi, xalq ongiga joylashib, uning hayotining hal qiluvchi kuchiga aylanmog‘i, unda ijtimoiy-tarixiy ahamiyatga molik bo‘lgan faoliyatni vujudga keltirmog‘i zarurdir.

Umuman g‘oya jumladan, milliy g‘oyaga berilgan yuqoridagi ta’riflar haqiqatan ham qisqa, aniq va chuqur ilmiy asosga egadir. Albatta, milliy mustaqillik tufayli milliy g‘oya masalasi markaziy muammolardan biriga aylandi. U haqda bildirilayotgan fikrlar, qarashlar sohasida turli-tumanlik, hatto ziddiyatli jihatlarini bo‘lishi tabiiy. Chunki yaqin o‘tmishda “yopiq” hisoblanib kelingan va

ta'qiqlangan bu mavzu uyg'onish jarayonini boshidan kechirmoqda. Bu sohada hali ko'plab asarlarning yaratilishi tabiiy, bu esa mazkur muammoning har tomonlama chuqur, asosli darajaga ko'tarilishiga olib keladi.

Milliy g'oyaning mohiyatini to'g'ri tushunish va uni aniq-ravshan qilib asoslash, milliy g'oya uchun har tomonlama, tinimsiz kurash olib borish yuksak vatanparvarlik va xalqparvarlik tuyg'ulari dilga jo bo'lishi, jamiyatni oqilona ilmiy boshqarish ilmini puxta egallab olish, aniq maqsadlarga tayanishni taqozo etadi.

1.2. Milliy g'oya va ijtimoiy-tarixiy qadriyatlar

Biz yuqorida milliy g'oya tushunchasining ichki mohiyati to'g'risida bahzi qarashlarimizni bayon etishga harakat qildik. Milliy g'oya to'g'risida falsafiy-nazariy xulosa chiqarish mumkin: milliy g'oya faqat nazariy asos bo'libgina qolmay, balki shu bilan birga amaliy faoliyat omili hamdir. Bir tomondan, jamiyatning istiqbolga mo'ljallangan maqsadlari, intilishlari milliy g'oyada aks etadi, ikkinchi tomondan, milliy g'oya xuddi shu oliyjanob maqsadlarga erishish yo'llarini ham ko'rsatib beradi, jamiyatning bosqichma-bosqich rivoj topib borishiga, xalqning uyushib, birlashib dadil olg'a intilishiga yo'l ochadi.

Milliy g'oya ham nazariy, ham amaliy jihatdan juda katta harakatlantiruvchi kuch bo'lgani uchun uni puxta idrok etish, asoslash, uning manbalari va tarkibiy qismlarini belgilab olish zarur.

Milliy g'oyasi puxta ishlanmagan va kelajakka yo'naltirilmagan jamiyat barqaror va izchil rivojlana olmaydi. Boshqa tomondan, milliy g'oya umuminsoniy mezonlar doirasida bo'lishi, taraqqiyotning umumiy talablari asosida shakllanishi zarur. Milliy g'oyaning shakllanishi davr taqozosi bilan, ijtimoiy rivojlanishdagi keskin o'zgarishlar bilan bog'liq holda kechishi, aniqrog'i, bu o'zgarishlarni o'zida gavdalantirishi lozim.

Milliy g'oyaga eng yaqin qadriyatlardan biri - milliy siyosatdir. Ma'lumki, milliy siyosat millatning, xalqning manfaatlarini mamlakat ichkarisida ham, mamlakat tashqarisida ham himoya qiladi, mamlakatning rivojlanish istiqbolini belgilab beradi.

Aytish mumkinki, milliy g'oya milliy siyosat bilan yagona, bir yo'nalish, bir maqsad va mazmunga egadir. Boshqacha aytganda, milliy g'oya milliy siyosatning manbai, nazariy asosidir. Barqaror va izchil, nazariy jihatdan puxta asoslangan va ishlangan, ijtimoiy taraqqiyotning tub mohiyatiga mos keluvchi milliy siyosat xalqni o'ziga ishontira oladi, uni olg'a boshlay oladi, iqtisodiy yo'nalishga to'g'ri asos beradi, jahon siyosat doirasida o'zining munosib o'rnini topa oladi.

“O‘zbekistonning tashqi siyosat borasidagi faoliyatining asosini davlat milliy manfaatlarining ustuvorligi, xalqaro huquq mezonlari, tenglik va boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, barcha bahsli masalalarni tinch muzokaralar yo‘li bilan hal etish kabi jahon miqyosida e’tirof etilgan tamoyillar tashkil etadi”.² O‘zbekistonning milliy manfaatlarga sodiq holda olib boradigan tashqi siyosatining negizida ana shunday vazifalar turadi va bundan buyon ham o‘zgarmasdan qoladi.

Bugungi kunda davlatimiz olib borayotgan milliy siyosatning ichki sohalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu narsa milliy g‘oyaga sadoqat ruhida amalga oshirilmoqda, mamlakatimizda davlat va jamiyat qurishning asosiy jarayonlarida o‘z ifodasini topmoqda. Bu jarayonlarni tahlil etadigan bo‘lsak, birinchidan, siyosiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish, fikrlar rang-barangligini ta’minlash, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini rivojlantirish, demokratik qadriyatlarni yanada mustahkamlash; ikkinchidan, hokimiyat tizimlari bo‘linishining konstitutsion prinsipiga qat’iy amal qilish, mahmuriy sohada islohotlar samaradorligini oshirish, kadrlarni yangilash tizimini takomillashtirish; uchinchidan, iqtisodiyotni erkinlashtirish, xususiy biznesga kengroq erkinlik berish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, iqtisodiyotga xorij sarmoyasini keng jalb etish, mamlakat eksport salohiyatini mustahkamlash, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, to‘rtinchidan, milliy qadriyatlarni tiklash, islom dinining axloqiy tarbiyadagi rolini qadrlash, sog‘lom avlodni tarbiyalash, barcha millatlarning fuqarolik huquqlarini hurmatlash, beshinchidan, huquqiy davlat barpo etishning ob’ektiv va sub’ektiv shart-sharoitlarini vujudga keltirish va milliy manfaatlarimizning boshqa sohalaridagi siyosatni esga olib o‘tish joizdir.³

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada huquqiy jihatdan kafolatlangan milliy siyosatimizning asosiy sohalari Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan siyosat milliy g‘oyaga, respublikada yashovchi barcha

² Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, Erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz.-T., O‘zbekiston, 2000 , 24-27 –betlar.

³ Qaralsin: Karimov I.A. O‘sha asar, 6-24 betlar

millat va elatlarning tub manfaatlariga mos kelganligidan o'zining yashovchanligi va bunyodkorligini ifoda etmoqda.

Shunday ekan, milliy siyosatning g'oyaviy asoslari negizida nima yotadi?

Ichki milliy siyosat xalqning tili, dini, tarixi, anhanalari, ma'naviyati, madaniyati, ruhiy olami, turmush tarzi kabi muhim omillarni ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi. Milliy siyosat xalqning manfaatlarini aks ettirishi, xalqqa xizmat qilish uchun shu xalqning o'tmishi, hoziri va kelajagini o'zida aks ettirishi, xalqning ruhiga, istaklari va kurashlariga mos bo'lishi lozim.

Tashqi milliy siyosat, yuqorida ta'kidlaganidek, boshqa davlatlar bilan munosabatlarda o'zaro tenglik, o'zaro manfaatdorlik va adolat tamoyillariga asoslanadi. Demak, ichki siyosat ham, tashqi siyosat ham yagona milliy g'oya asosida shakllanadi va shunga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Milliy g'oya bilan milliy siyosat o'zaro bir butunlikni tashkil etsa-da, ular bir-birlaridan farq qiladi, albatta. Milliy g'oya milliy siyosatga nisbatan ijtimoiy taraqqiyotning barqaror tomonlarini gavdalantiradi, shu sababli uning obhekti darajasiga ko'tariladi. Milliy siyosat milliy g'oyaga nisbatan bir qadar o'zgaruvchan bo'lib, asosan ichki va tashqi vaziyat bilan bog'liq bo'ladi, ayni vaqtda bugungi jarayonlar negizida kechadi.

Milliy g'oyaning manbalari, tarkibiy qismlari, ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan uzviy va o'zaro aloqadorligi to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, bir tomondan, milliy g'oya tushunchasining mohiyatini yanada kengroq va chuqurroq sharhlashga, ikkinchi tomondan, milliy g'oyani shakllantirish, barqarorlashtirishga va uning namoyon bo'lishiga imkoniyat yaratishga muvaffaq bo'lamiz.

Umumiy g'oyaga milliylik bag'ishlovchi eng muhim omillardan biri - *milliy tildir*. Milliy g'oya rivojini milliy til rivojisiz tasavvur qilish mumkin emas. Binobarin, milliy tilni asrab, avaylab, rivojlantirib borish, uning butun jozibasi va go'zalligini namoyon etish, jahon tillari orasida milliy tilning obro'sini ko'tarish – bular milliy g'oyaning muhim dasturidir. Milliy til ayni vaqtda milliy g'oya tarkib topishi, yashashi, avloddan avlodga o'tishining asosiy omilidir. Bu yerda tilning

g'oya tashuvchilik va informatsiya almashuvchilik funksiyasi to'g'risida gapirishga hojat yo'qdir.

Millatning, xalqning tili yo'qolsa, shu millat, xalq barxam topadi, millat, xalqning tili kamsitilsa, uning rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qilinmasa, xalq hayoti parokandalikka uchraydi, xalq va millat rivojlanishdan orqada qoladi.

Milliy tilning g'oyaviy asoslari nimalardan iborat?

Milliy til nafaqat muomala vositasi, balki eng avvalo, shu millatning o'tmishi, uning hoziri va kelajagini o'zaro bog'lovchi asosiy vositadir. Ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiy turkiy tilning sofligi va rivoj topishi uchun jiddiy kurash olib borganini e'tiborga olsak, milliy tilni rivojlantirish uchun olib borilgan kurash ayni xalq manfaatlari uchun olib borilganligiga amin bo'lamiz. Alisher Navoiy uchun til va millat manfaati yagona edi, turkiy tilning behisob ichki boyliklarini ochib berish orqali u uzoq kelajakka nazar solgan edi.

A.Navoiy "Muhokamat-ul lug'atayn" asarida ona tilining milliy badiiy g'oyani ifodalovchi adabiyot tili bo'la olishini, ko'p o'rinlarda so'z boyligi va grammatik imkoniyati jihatidan fors tilidan qolishmasligini isbotlab berdi. Buning isboti uchun 100 ta turkiy felning forsiy tilda ifodasi yo'qligini, poetik nutqda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan sinonimlarning va tuyuqlar yaratishda zaruriy bo'lgan omonimlarning fors tilidagiga nisbatan ko'pligini dalilladi.⁴

Jahon tilshunos olimlari dunyo miqyosida e'tirof etilgan eng ulug' ijodkorlarning so'z boyliklari bo'yicha tadqiqot o'tkazib, quyidagilarni aniqladilar: Navoiy ijodida 26.0035 ta so'z ishlatilgan. Bu miqdor Pushkinda 21.00193, Shekspirda 20.000, Servantesda 18.000, Jomiyda 17600, To'qayda 14.000 tani tashkil etadi.⁵

Alisher Navoiydan oldin yashagan Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida milliy sadoqat g'oyalari o'z ifodasini topgan edi. Umuman tariximizda yashab ijod etgan, asrlar davomida o'z mohiyati va ahamiyati yo'qotmagan o'nlab allomalarning til masalasiga, turkiy tilni rivojlantirishga

⁴ Qaralsin: O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. –T., Qomus, 1997, 504-bet

⁵ Qaralsin: Ibrohimov A. Bizkim, o'zbeklar ..., 194-bet

qaratilgan nazariy fikrlari, amaliy jihatdan ularni hayotga tatbiq etishga intilganliklarining negizida haqiqiy elparvarlik g'oyalari yotadi.

Anglashiladiki, milliy til faqat muomala vositasi emas, milliy tilda milliy g'oyaning nihoyatda nozik tomonlari, ichki mohiyati aks etadi. Milliy g'oya milliy til tufayli muayyan yo'nalish oladi, moddiy asosga ega bo'ladi. Milliy tilning barcha ifoda vositalari tufayli milliy g'oyaning tahsir kuchi yanada ortadi. Demak, tilga e'tibor, tilni rivojlantirish uchun qilingan barcha xatti-harakatlar milliy g'oyaning to'laroq namoyon bo'lishi va odamlarni ma'lum maqsad sari uyushtirish, jamiyat rivojiga to'g'ri yo'nalish berish orqali amalga oshadi.

Bugun tarixiy taraqqiyot davomida xalqning erkinlik, ozodlik, mustaqillik uchun kurashlari, tinch, xotirjam, farovon hayot uchun intilishlari milliy g'oya tarzida shakllanib, barqarorlashib yanada izchillik kasb etar ekan, bu murakkab va ziddiyatli jarayonning asosini, jumladan milliy til uchun kurash tashkil etgan. Demak, milliy g'oya ham milliy til singari qadimiydir. Turkiy tilning manbalari uzoq davrlarga borib taqaladi. U millat va davlat kelib chiqqinuviga qadar ham mavjud bo'lgan. Davlat va millat paydo bo'lgach, til yanada ravnaq topgan. Umuman, milliy g'oyani milliy tilsiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, milliy tilni ham g'oyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Xulosa shundan iboratki, har qanday til ham mazmunan, ham tarkiban rivojlanib borishi uchun muayyan g'oyaviy yo'nalishga asoslanishi zarur. Shu ma'noda milliy g'oya har qanday ijtimoiy taraqqiyotning ichki mazmunidan kelib chiqmasa, soxta yo'llar bilan ijtimoiy hayot sohasiga olib kirilsa, milliy til obro'siga putur etkazadi, zo'rovonlik bilan qilingan bu harakat ertami-kechmi barxam topadi.

Darvoqe, mustamlakachilik siyosatining eng qabih tomonlaridan biri-hukmron millat o'z tilini qaram millatga zo'rlab kiritgan, uni bilish mazlum millat vakillari uchun majburiy qilib belgilanganligidir. Yaqin o'tmishni esga oladigan bo'lsak, sho'ro tuzumi sharoitida milliy til va madaniyatning keng quloqch yoyishiga to'sqinlik qilib, rus tiliga ustivor davlat maqomi berildi. Mazkur til ilm-fan tili, u yoki bu shaxsning kelajagini, mansab pillapoyasini ta'minlovchi asosiy mezon hisoblandi. Hatto, tarixan shakllangan o'zbek atamasiga urg'u berishga

zimdan ruxsat berilmadi. Uning o'rniga "sovet grajdani", "sovet xalqi" yoki "respublika xalqi" singari umumlashma atamalarni ishlatishga majbur etildi. Bunga "ayniqsa, tarix fanida alohida ahamiyat berilib, qadimgi va o'rta asrlar tarixini yoritishda o'zbek so'zi deyarli ishlatilmadi."⁶

Biz milliy g'oyaning tarkibiy qismlari, asosiy manbalarini, funksional omillari to'g'risidagi masalani tahlil etar ekanmiz, uning milliy madaniy meros bilan, milliy madaniyat, milliy turmush tarzi bilan, nihoyat iqtisodiy rivojlanishning milliy omillari bilan uzviy aloqadorligini ta'kidlashimiz lozim.

O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgandan so'ng iqtisodiy, ma'naviy rivojlanish bilan bevosita bog'liq bo'lgan masala, ya'ni O'zbekistonning jahon hamjamiyati ichidagi o'z o'rnini, hurmat ehtiborini belgilab olishi, mustahkam mavqeiga ega bo'lishi kun tartibiga qo'yildi. Tabiiyki, bu o'ta murakkab va mas'uliyatli vazifa edi. Chet ellarda, Birlashgan Millatlar Tashkilotida ko'pdan-ko'p xalqaro tashkilotlarda O'zbekistonni davlat sifatida tasavvur eta olmas, nari borsa sobiq ittifoqning bitta respublikasi deb bilar edilar. Ayni vaqtda O'zbekiston to'g'risida noto'g'ri fikr-mulohazalar ham tarqalganligi ehtimoldan yiroq emas. Albatta, buning sababi mustaqillikdan oldingi davrlarda O'zbekistonning boy tarixi, madaniyati, ichki imkoniyatlari, o'zbek xalqining o'ziga xos turmush tarzi, an'analari, marosimlari haqida jahon jamoatchiligining yetarli ma'lumotga ega emasligi edi. Aniqroq aytganda, ittifoq hukumati ham, kommunistik mafkura ham O'zbekiston to'g'risidagi haqiqatni ochiqdan-ochiq ko'rsatishdan manfaatdor emasdi. Bu narsa har qanday kolonial tizimning siyosiy vazifasi ekanligi ma'lum.

Shunday murakkab va qiyin vaziyatga qaramay respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat" shiori ilgari surildi. Bu narsa Prezidentimiz asarlarida nazariy-falsafiy jihatdan asoslab berildi. Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmoimiz lozim.

⁶ Qaralsin: Ziyoyev H. Istiqlol-ma'naviyat negizi. –T., Ma'naviyat, 1999, 63-bet.

Biz barpo etayotgan davlat eng avvalo, umumjahon sivilizatsiyasiga, davlat qurilishi sohasida boshqa xalqlar erishgan tajribalarga asoslanishi kerak.⁷

“O‘zbekiston – kelajagi buyuk davla“ g‘oyasi haqiqatan ham respublikamiz taraqqiyotining asosiy g‘oyasi edi. Bu milliy g‘oya jahon jamoatchiligi tomonidan e’tirof etildi, uning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy negizlari ilmiy asosga qo‘yildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti o‘nlab xalqaro anjumanlar minbaridan turib bu g‘oya himoya qilindi.

Ulkan strategik ahamiyatga ega bo‘lgan bu milliy g‘oyaning manbalari, omillari, negizlari mavjuddir. Shu ma’noda milliy mustaqillikni mustahkamlashning ijtimoiy g‘oyasi quyidagilarga tayanadi:

Birinchidan, O‘zbekistonning ko‘p asrlik boy tarixi, birinchi galda milliy madaniy merosi;

Ikkinchidan, O‘zbekistonning yer osti, yer usti, tabiiy boyliklari, qulay iqlimi, suv, o‘simlik zahiralari;

Uchinchidan, o‘zbek xalqining o‘ta mehnatsevarligi, ishbilarmonligi, tadbirkorligi, ahilligi, uyushqoqligi, mustaqillikka sadoqati.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston tanlagan yo‘lning adolatli, bozor iqtisodiyotiga o‘tish borasida I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan andozaning realligi, samaradorligi, O‘zbekistonda qaror topayotgan demokratik tamoyillar va qadriyatlarning hayotiyliigi.

Ko‘rinib turibdiki, dastlabki yillardanoq mustaqillikning milliy g‘oyasi aniq-ravshan belgilab olindi. Binobarin, yuqorida tilga olingan manbalarsiz milliy taraqqiyotimizni tasavvur etish mumkin emas.

Birinchidan, har qanday xalqning kuch-qudrati, aql-zakovati, salohiyatini to‘liq va har tomonlama tasavvur qilish uchun uning tarixini chuqur bilish taqozo etiladi. Bu xalq jahon sivilizatsiyasiga qanchalik hissa qo‘sha olgan, o‘zining tarixiy taraqqiyoti davomida qanday buyuk allomalarni yetishtirib chiqqan, ilm-fan, madaniyat rivoji qay darajada rivoj topgan, iqtisodiy taraqqiyotga qanday

⁷ Qaralsin: Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillar. – T., O‘zbekiston, 1995

yo‘llar bilan erishgan singari muhim savollarga javob topilgach, mazkur xalqning o‘tmishi aniq-ravshan namoyon bo‘ladi. Ilmiy tadqiqot tamoyili tarixiylikka asoslanib, mazkur xalqning buguni va kelajagini aniq ko‘rsatib berishi mumkin. Binobarin, o‘tmishsiz kelajak yo‘q, kelajaksiz taraqqiyotni tasavvur etish mumkin emas.

Jahonning qomusiy adabiyotlari va lug‘atlarida o‘zbek xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi allaqachon e‘tirof etilganligi ma’lum. Publitsist va yozuvchi A.Ibrohimov tomonidan aniqlangan ma’lumotlarga qaraganda Amerika Qo‘shma Shtatlarida chop etilgan ”Jahon qomusiy lug‘ati” da shunday yoziladi: “O‘zbek-jahon xalqlari orasida birinchilardan bo‘lib, turkiy xalqlar o‘rtasida birinchi bo‘lib o‘rtoqlashgan, madaniy turmush kechiruvchi, jahon sivilizatsiyasiga hissa qo‘shgan millat”.⁸

A.Ibrohimov o‘z asarida o‘zbek xalqining tarixi uning tarjimai holi degan fikrni beradi, shu munosabat bilan xalqimizning bosib o‘tgan yo‘li, taraqqiyotining asosiy bosqichlari, ziddiyatlari, rivojlanish omillari, shuningdek bugungi kundagi istiqbollari haqida atroflicha to‘xtab o‘tadi. O‘zbek xalqining Markaziy Osiyodagi eng qadimgi xalqlardan biri ekanligi, uning boy madaniy va ma’naviy merosi, yetishib chiqqan buyuk allomalarning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi to‘g‘rida xorijiy va respublikamiz olimlari asarlarida chuqur ilmiy xulosalar beriladi. Y.G‘ulomov, I.Mo‘minov, M.Xayrullayev, A.Asqarov, H.Ziyoev, A.Muhammadjonov kabi o‘nlab allomalarning asarlarida ma’naviyatimizning bebaho va boy tarixi ilmiy yoritiladi. Ayni vaqtda jahonga mashxur Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Beruniy, Imom Buxoriy kabi ma’naviyat daholarining asarlari ham tarixning buyuk mazmunidan xabar beradi. Shuningdek, markaziy osiyolik tarixchilar Ali Yazdiy, Shomiy, Beruniy, Narshaxiy, Mirxond, Abulg‘oziy, Ulug‘bek, Nizomulmuluk, A.Samarqandiy kabilarninng asarlari ham madaniyatimiz tarixining eng muhim bosqichlari to‘g‘risida haqiqat obidasidir.

O‘zbekistonda mustaqillikni mustahkamlash uchun ishlab chiqilgan milliy g‘oya va milliy siyosatni to‘g‘ri yo‘nalish bilan ta’minlovchi eng kuchli

⁸ Ibrohimov A. Bizkim, o‘zbeklar ..., 7-bet

vositalardan biri ko‘p ming yillik, ayni vaqtda boy tariximiz bilan nafaqat o‘zimiz, balki jahon ahlini ham tanishtirishdir. Buning samarali yo‘li ulug‘ allomalarning tavallud ayomlarini umumxalq bayrami sifatida nishonlash, asarlarini chop etish, qadamjolarini obod etishdan iborat bo‘lib, bu sohada keng miqyosda ish olib borilmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov o‘z asarlarida tarixiy jarayonlarni ilmiy jihatdan o‘rganish masalasini kun tartibiga qo‘yar ekan, o‘zbek xalqining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini kompleks o‘rganish zarurligini uqtiradi. Fan, madaniyat, adabiyot va sanoat, xunarmandchilik sohasidagi ulkan yutuqlar bilan bir qatorda dehqonchilik, davlat va jamiyatni boshqarish sohasida, qonunchilik, tarixiy ongni tarkib toptirish borasida ham chuqur tadqiqotlar o‘tkazishni, ularni milliy istiqlol g‘oyasi vazifalari nuqtai nazaridan o‘rganish vazifasini qo‘yadi. Prezidentimiz ta’kidlashicha, milliy g‘oya, milliy mafkurani tarkib toptirishdagi eng katta manba bu xaqqoniy yoritilgan tarixdir. “Tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy negizlarini anglab bo‘lmaydi. Chunki mafkuraning falsafiy asoslari o‘z davrida tarixiy haqiqat tufayli tug‘ilgan”.⁹

Agar shu nuqtai nazardan fikr yuritadigan bo‘lsak, milliy mafkuramizning tarixiy ildizlari “chuqur tarixiy davrlarga borib taqalib, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning mahsuli sifatida allaqachonlar shakllangandir.”¹⁰

Tarixshunos olim H.Ziyoyevning yozishicha, tarixiy jihatdan milliy mafkuramiz XI-XII asrlarda, yaoni turk hoqonligi davrida o‘tmish merosining yakunlovchi bosqichi sifatida yanada kuch-qudratga to‘ldi va mustahkamlandi. O‘sha zamonlarda, ”Turk” atamasi keng ko‘lamda qo‘llaniladi va qat’iy rasmiylashtiriladi: “turk vatani”, “turkiy til”, “ turk yozuvi” “turk davlati”. Bu esa “turkiy mafkura” ni yangi bosqichga ko‘taradi, o‘z-o‘zini anglash ona yerga muhabbat, erkinlik, taraqqiyot omillariga aylanadi. Tabiiyki, bu mafkura, ijtimoiy g‘oya tarixiy taraqqiyotning murakkab bosqichlarini boshidan kechirib, o‘zining asl mohiyati va asosiy tamoyillarini boyitib kelmoqda. “Shuni uqtirib o‘tish joizki,

⁹ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. 26-27 betlar.

¹⁰ Ziyoyev H. Istiqlol-ma’naviyat negizi. 139-bet

bu mafkura qattiq nazorat va ta'qib ostiga olinib bir burchakka siqib qo'yilgan vaqtlari ham bo'lgan. Ammo uni hech qanday kuch mahv qilolmagan. Vaqti kelib u dillardan qaynab chiqib, umumxalq harakatlarini yuzaga keltirgan. Masalan, mug'ullar hukmronligiga qarshi ko'tarilgan Mahmud Torobiy va Sarbadorlar qo'zg'olonlari shular jumlasidandir. Ularni milliy g'oyaning mustaqillik va ozodlik haqidagi g'oyalari chulab olgan edi. Mafkura g'oyalariga aql-idrokli, vatanparvar, jasoratli, tadbirkor va umuman, har jihatdan etuk shaxs boshchilik qilgandagina samarali bo'lishi mumkin".¹¹

Xalqimiz tarixida bunday yorqin siymolar juda ko'p o'tganligi ma'lum. I.A.Karimov so'zlari bilan aytganda, beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan eng qadimgi tosh yozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'l yozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, sanoat, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, meomorchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi.

Azamat Ziyoning quyidagi fikrlari bunga dadil bo'la oladi: "Miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlarida ajdodlarimiz temirni qayta ishlashni o'rganib oladilar, ilmiy izlanishlar shundan dalolat beradiki, miloddan avvalgi birinchi ming yillikning birinchi yarmida mamlakatimiz xududida, umuman mintaqamizda tog' jinslarini qayta ishlash (masalan,temir, oltin, qalay, qo'rg'oshin va hokazolar), ulardan urush va mehnat qurollari yasash, kulolchilik, to'quvchilik, quruvchilik, zargarlik, kemasozlik kabi sohalar rivoj topgan".¹²

Ko'rinib turibdiki, o'zbek xalqi boy tarixiy-madaniy merosga ega, bu esa xalqimizning,mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasida munosib o'rin egallab turishidan dalolat beradi, uning taraqqiyot g'oyasining ma'naviy omillaridan hisoblanadi. Demak, istiqlolni mustahkamlashning milliy g'oyasi havoyi, mavhum tushuncha emas. Bu tushuncha real voqealarga, tarixiy haqiqatlarga asoslanadi.

¹¹ Ziyoyev H. Yuqoridagi asar, 141 - bet

¹² Ziyo Azamat. O'zbek davlatchiligi tarixi. –T., 2000. 37-bet

Milliy g'oyani shakllantiruvchi, uning amalga oshishini ta'minlaydigan ikkinchi omil – bu O'zbekistonning *tabiiy boyliklaridir*. Tabiiyki, bu jihatdan respublikamiz jahonda yuqori darajada munosib o'rin egallaydi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning yozishicha, qulay iqlim sharoiti, ulkan mineral-xomashyo zahiralari, strategik materiallar va qishloq xo'jalik xomashyosining katta zahiralari haqli sur'atda respublikamizni mintaq va dunyoning eng boy mamlakatlari qatoriga olib chiqdi.

O'zbekiston zaminida juda ulkan va noyob xomashyo resurslari to'plangan. Mendeleyev davriy sistemasida qayd etilgan qariyb barcha elementlar topilgan, turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'ladigan istiqbolli joylarning 2700 dan ortii aniqlangan. Mineral-xomashyo turlari nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bular 100 ga yaqindir. Ulardan 60 dan ko'prog'i ishlab chiqarishga jalb etilgan, 900 dan ortiq kon topilgan, ularning zahiralari salkam bir milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Ayni vaqtda umumiy mineral-xomashyo potentsiali 3,3 trillion dollardan ortiq darajada baholanadi. Har yili respublika konlaridan taxminan 5,5 mlrd, dollarlik foydali qazilma olinmoqda, oltin zahiralari bo'yicha respublika jahonda 4-o'rinda, uni qazib chiqarishda 7-o'rinda, mis zahiralari bo'yicha 10-o'rinda, uran zaxirasi bo'yicha 7-o'rinda turadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov strategik ahamiyatga ega bo'lgan resurslar to'g'risida so'z yuritganda quyidagi 7 jihatni alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Birinchidan, respublikamiz ulkan yonilg'i-energetika resurslariga ega. Chunonchi, gaz zaxiralari 2 trillion kubometr ga yaqin, ko'mir - 2 mlrd. tonnadan ortiq, 160 dan ziyod neft konlari ishlab turibdi.

Ikkinchidan, yuqorida qayd etganimizdek, respublikamiz juda ulkan oltin, kumush va boshqa qimmatbaho hamda yer ostida kam uchraydigan metallarning zapaslariga ega. Ayni vaqtda 40 dan ortiq qimmatbaho metall konlari qidirib topilgan.

Uchinchidan, rangli metallar-mis, qo'rg'oshin, ruh, volpfram va shu guruhga kiradigan metallarning zahiralari mavjud.

To‘rtinchidan, respublikamiz hududida 20 ta marmar, 15 ta granit va gabbro koni borligi aniqlangan.

Beshinchidan, fosforit zaxiralari g‘oyatda katta.

Oltinchidan, katta kaliy konlari ishlab turibdi.

Yettinchidan, osh tuzi konlari ham katta miqdorda.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekistonning ko‘pgina noyob mineral-xomashyo va qishloq xo‘jalik resurslariga jahon bozorlarida talab g‘oyatda kattadir.¹³

O‘zbekistonning behisob tabiiy boyliklari to‘g‘risida gap borganda ikki muhim vazifani alohida ta’kidlash joizdir. Birinchidan, bu boyliklarning mutlaqo O‘zbekistonning, o‘zbek xalqining o‘ziga taalluqli ekanligini har tomonlama tavsiflash kerakligi. Holbuki, yaqin vaqtlargacha bu boyliklarga boshqalar xo‘jayinlik qilar edi, mustaqillik tufayli bunday holatga batamom chek qo‘yildi. Ikkinchi vazifa bu boyliklarni bevosita ishga tushirish, ulardan xalqni bahramand qilish, ularni jahon bozoriga olib chiqish uchun eng zamonaviy texnologiya va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash zaruriyati. Albatta, bu narsa kadrlar tayyorlash milliy Dasturini amalga oshirish, bu borada boshlangan ishlarni izchil davom ettirishdan iboratdir. Shu munosabat bilan I.A.Karimov ta’kidlaydiki, “mamlakatimizda rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan farovon demokratik davlat barpo etishdek oliy maqsadga erishmog‘imiz uchun O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga keng miqyosda integratsiyalashuvini ta’minlash zarur”¹⁴

Xorijiy mamlakatlarning O‘zbekistonga qiziqishlarini orttirish, ularda hamkorlik qilishga chuqur ishonch uyg‘otish milliy taraqqiyotimizning o‘zbekona yo‘li – milliy g‘oyamizni amalga oshirishning muhim omillaridan hisoblanadi.

¹³ Qaralsin: Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T., O‘zbekiston, 1997, 227-257-betlar

¹⁴ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 26-bet

Uchinchi manba to'g'risida so'z borganda xalqimizning mehmondo'stligi, tantiligi, adolatparvarligi, mehnatsevarligi, shuningdek, yurtimizda qaror topayotgan siyosiy barqarorlik, demokratik tamoyillarning keng amal qilishi, huquqiy-demokratik qadriyatlarning keng qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega ekanligi nazarda tutiladi. Bu siyosiy-demokratik, iqtisodiy, ma'naviy tamoyillarning moddiy kuchga aylanishi, bu sohada qo'lga kiritilgan dastlabki ishonchli yutuqlar respublikamiz aholisining milliy istiqlool g'oyasiga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi. Shu sababli bu narsa xalqning milliy iftixor tuyg'usi, ichki ruhiy olami, turmush tarzi to'g'risida fikr yuritishga da'vat etadi. Shu ma'noda milliy g'oya ma'naviy va moddiy tomonlarning birligi sifatida xalqning ichki ma'naviy olamiga, uning turmush tarziga mos bo'lishi kerakligi muhimdir.

Milliy g'oyaning rivojlanishi va takomillashib borishini ta'minlaydigan omillardan to'rtinchisi – bu mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari, olib borilayotgan islohotlarining mazmuni, yo'nalishi, qurilayotgan jamiyatning demokratik asoslari hisoblanadi.

O'zbekiston mutaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyoti yo'li tanlab olindi. Ammo bozor iqtisodiyoti ko'p qirrali jarayon bo'lib, har bir mamlakatning chinakam rivojlanish yo'liga chiqib olish uchun o'ziga xos imkon beradi. Prezidentimiz I. A. Karimov O'zbekiston uchun bozor iqtisodiyotiga chiqishning asosiy modeli – bu ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodi ekanligini ko'rsatib berdi. Chunki bizning iqtisodiy va ma'naviy qadriyatlarimiz, qabul qilgan milliy g'oyamiz shuni taqozo qiladi. Bir so'z bilan aytganda, islohotlar odamlarga xizmat qilishi zarur. Obod va ozod Vatanni barpo etish, farovon hayotni yaratish bosh g'oyaviy maqsadimizdir.

Bu yuksak g'oyaviy maqsadga qanday qilib erishish mumkin?

Birinchidan, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tib borish. Har bir bosqichdagi yutuq va kamchiliklarini tahlil qilib, kamchiliklarni tugatish yo'llarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish taqozo qilinadi.

Ikkinchidan, mamlakatni ham iqtisodiy, ham ma'naviy rivojlantirish. Jamiyatni siyosiy boshqarib borishda demokratik tamoyillarining izchil amal qilishi, ularga tayanish.

Uchinchidan, xalqning, odamlarning ong-tushunchasini yangilash, ularni ma'naviy poklash, ruhiy tozartirish, dunyoqarashini kengaytirish.

To'rtinchidan, mamlakatda tadbirkorlikni keng avj oldirish, boqimandalik ruhiyatiga uzil-kesil barham berish.

Beshinchidan, o'qimishli, bilimli, sadoqatli, ishbilarmon, uddaburon kadrlar tayyorlash. Buning uchun ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish.

Yuqorida tilga olingan vazifalarning bajarilishi, bir tomondan, milliy g'oyaning tobora kuchayib, barqarorlashib borishini ta'minlaydi, ikkinchi tomondan, xuddi shu murakkab vazifalarni bajarishda milliy g'oya xalqni birlashtirib, odamlarning tashabbuskorligini oshiradi, maqsad-intilishlarini qat'iylashtirib boradi.

Biz yuqorida tavsiflab o'tgan milliy g'oyaning manbalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ularning yaxlit birlikda namoyon bo'lishi O'zbekistonning bugungi va ertangi kun qiyofasini belgilab berishga yo'naltirilgandir. Ko'rinib turibdiki, milliy g'oyaning funksiyalari, ya'ni ijtimoiy vazifalari xuddi shu manbalar asosida amalga oshadi, reallashadi.

Milliy g'oyaning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni va harakatlantiruvchi kuchini tasavvur qilish uchun uning asosiy funksiyalarini aniqlab olish zarur bo'ladi. Ularning asosiylari bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Milliy g'oyaning yana bir muhim funksiyasi – xalqni yagona maqsad sari uyushtirishni ko'zda tutadi. Har bir odam nechog'lik harakat qilmasin, bordiyu odamlar yagona maqsadni ko'zlab samarali faoliyat olib bormasalar, ular o'rtasidagi munosabatlar kuchli natija bera olmaydi. Odamlar o'z harakatlarini birlashtirish uchun yagona g'oyani amalga oshirish uchun kurashishlari, qolaversa, g'oya bu kishilarning qalbiga singishi, kurash bayrog'iga aylanishi zarur.

Tadqiqotchilarning yozishlaricha, milliy g'oyaning tarkibini tashkil etadigan tabiiy-ilmiy g'oyalarning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni aksariyat hollarda bivosita

namoyon bo'lsa, ijtimoiy g'oyalar ijtimoiy jarayonlarga bevosita ta'sir o'tkaza oladi va, aytish mumkinki, o'ziga xos katalizator sifatida namoyon bo'ladi, shu ma'noda olib qaraganda ijtimoiy mazmundagi g'oya sinfiy, milliy yoki boshqa shakllarda namoyon bo'lmasin, ular o'z mohiyatidan kelib chiqib jamiyat taraqqiyotiga turlicha, tahsir qilishi ham mumkin.¹⁵ Bu o'rinda diniy va dunyoviy g'oyalarning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rnini esga olish mumkin.

Milliy istiqlol g'oyasi jamiyat, xalq, har bir inson manfaatlari va maqsadlarini to'la ifodalaganligi sababli ulkan yaratuvchanlik kuchiga ega. Millatchilik, diniy-ekstremistik g'oyalar zo'ravonlikka, buzg'unchilikka asoslangani uchun ham yo'qolib ketishga mahkum etilgandir. Ular xudbinlik, shaxsiyatparastlik, mansab uchun kurash, shaxs manfaatini xalq manfaatidan yuqori qo'yganligi sababli hech qachon amalga oshmaydigan hodisadir. Mana shunday maqsadlarga qarshi kurashda ma'rifiy yo'l bilan faoliyat ko'rsatish to'g'risidagi tamoyil o'zbek milliy g'oyasining mohiyatini ifodalaydigan eng muhim sifatdir. «Biz barcha ma'rifiy mamlakatlarda bo'lganidek, - deydi I.A.Karimov, - g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish tarafdorimiz». ¹⁶

Milliy g'oya ilmiy tafakkurning rivojlanishiga katta turtki beradi. Milliy g'oya umumiy taraqqiyotning tezlashishiga xizmat qilgan, fan va texnika bunda muhim omil bo'lganligi ma'lum. Fan-texnika taraqqiyoti, garchi obyektiv jarayon bo'lsa-da, ammo bu jarayonga subyektiv omilning – odamlar ong-tushunchalarining, qobiliyatlarining o'sishi, shuningdek odamlardagi shijoat, g'ayrat, kelajakka ishonch ham muhim ta'sir ko'rsatadi.

Milliy g'oyada mujassamlashgan vazifalar – funksiyalarning amal qilish uchun muayyan obyektiv shart-sharoit, shu tarzda omillar mavjud bo'lishi zarur, Respublikamizda endilikda bunday asoslarning barchasi reallikka aylangan.

Biz qadimgi boy tariximiz haqida gapirganda ham, bugungi kundagi tabiiy boyliklarimiz, kelajakka qaratilgan ulug'vor rejalar to'g'risida so'z yuritganda ham yuksak milliy g'oya – O'zbekiston taqdiri, uning buyuk kelajagi bilan bog'liq

¹⁵ Qaralsin: Falsafa (Ma'ruzalar matni). –T., 2000, 211-215- betlar

¹⁶ Karimov I.A. Xushyorlikka da'vat. 17-bet

holda fikr yuritimiz. Binobarin, tarixni yaratgan ham, kelajakni bunyod etuvchi ham xalqdir. Odamlarning sadoqati, fidokorona mehnatisiz ijtimoiy taraqqiyot to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas.

«Ma'rifat va madaniyatni rivojlantirish asosida ruhiy poklanish jamiyatni ham, shaxs hayotini ham yangi sifat o'zgarishiga olib kelishi shubhasiz. Mamlakatimizda bu jarayon mustaqillik yillarida keng avj oldi. Endi diqqinifas xonamiz istiqlolning jonbaxsh, hayotbaxsh shabadasi bilan tozalanmoqda. Ayni paytda u ong va shuurimizni boyitmoqda, jonlantirmoqda. Bular, albatta, hukumatimiz ruhiy tozarish va ma'naviy kamolotning uzoq yillarga mo'ljallangan dasturini izchil olib borayotgani samarasidir».¹⁷

¹⁷ Ibrohimov A., Sultonov H., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. –T., O'zbekiston, 1996, 359-bet

2 – BOB. MILLIY G‘OYANI TARKIB TOPTIRISHNING TARIXIY- MA’NAVIY OMILLARI

2.1. Tarixiy haqiqatning tiklanishi - milliy g‘oya shakllanishining obyektiv asosi.

Tadqiqotimizning birinchi bobida milliy g‘oya nafaqat ma’naviy omil, balki shu bilan birga, eng avvalo ma’naviy omilni moddiy omil bilan mahkam bog‘lovchi buyuk vositachi kuch ekanligini takidlab o‘tdik. Binobarin, moddiy tomonning harakatga kelishi, o‘zgarishi, rivojlanishi uning ma’naviy asosi bilan birikib, yaxlit jarayonni vujudga keltirish milliy g‘oyasiz amalga oshmaydi.

Milliy g‘oya bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarni diqqat bilan tahlil qilsak, deyarli ularning barchasida milliy g‘oya faqat ma’naviy omil sifatida olib qaraladi.¹⁸

Milliy g‘oyani faqat ma’naviy tomonga tegishli deb o‘ylasak, unda iqtisodiy tomonning, moddiy tomonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi - g‘oyaviy omilning roliga etarli baho berolmay qolamiz. Shuning uchun biz ishimizning bu qismida qo‘yilgan masalani tarixiy haqiqat va uning tiklanishi bilan bog‘liq holda umuman g‘oyaning ijtimoiy taraqqiyotdagi roli haqida qisqacha to‘xtab o‘tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ma’lumki, jarayon tushunchasi falsafiy jihatdan bir-biri bilan uzviy bog‘langan ikki holatni nazarda tutadi: jarayon, birinchidan, biror narsa-hodisa taraqqiyotidagi holatlar, hodisalarning izchil ravishda o‘rin almashinishidir, ikkinchidan, muayyan natijalarga erishish uchun amalga oshiriladigan xatti-harakatlar yig‘indisidir. Shu ma’noda tarixiy jarayon bir-biri bilan uzviy bog‘langan, birining ikkinchisidan kelib chiqadigan voqealar, hodisalar zanjiridan iboratdir. Ikki yarim ming yil oldin kashf qilingan dialektikaning qonunlari bu o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikning asl sabablarini bizga tushuntirib berishi mumkin: yo‘q joydan hech narsa paydo bo‘lmaydi, hech narsa mutlaqo yo‘q ham

¹⁸ Qaralsin: Abdullaev M. Milliy g‘oyaning metodologik muammolari. Mustaqil O‘zbekiston: Falsafa fanlarining dolzarb muammolari. VII kitob; Olim S. Milliy mafkura-xalq tayanadigan kuch. –T., Ma’naviyat, 2000.

bo‘lib ketmaydi. Bu jarayonda Subyektiv va obyektiv omillarning o‘rni va o‘zaro nisbatini aniqlash juda muhimdir. Subyektiv omilni faqat inson ongi, dunyoqarashi munosabatlari bilan cheklab qo‘yish unchalik to‘g‘ri emas. Subyektiv va obyektiv omillar aslida Subyekt va obyektning ta‘sirini xarakterlaydi. Demak, ijtimoiy taraqqiyotda Subyekt va obyekt tushunchalari narsa-hodisalarning kelib chiqishi, biridan ikkinchisining yaratilishi, birining boshqasiga kuchli ta‘siri, ularning o‘zgartiruvchanlik funksiyalariga tegishli ko‘plab savollarning javobini izohlab beradi.

Ijtimoiy taraqqiyotda subyekt va obyektning o‘zaro nisbati qotib qolgan, bir xil tarzda kechuvchi jarayon emas, bir holatda obyekt bo‘lgan narsa boshqa sharoitda unga nisbatan subyekt bo‘lishi ham mumkin.

Obyekt va Subyektning o‘zaro aloqasi, bir-biriga bog‘liqligi, bir-biriga ta‘siri ma‘lum tartib-qoida asosida, ma‘lum qonuniyatlar bilan bog‘liq holda ro‘y beradi. Bu tartib - qoida, qonuniyatlar ma‘lum maqsadga qaratilgan uchun muayyan g‘oyani ifodalaydi. G‘oya xuddi shu obyekt va subyektning tabiiy ravishda o‘zaro bog‘lanishidan, tabiiy ravishda o‘zaro ta‘siridan hosil bo‘ladi. Demak, ma‘lum g‘oyasiz obyekt va subyekt harakatga kelolmaydi, bir-biriga ta‘sir qilolmaydi. Shunday ekan, g‘oyani tashqaridan emas, balki ijtimoiy jarayondagi narsalar, buyumlar, voqealarning ichki mohiyatidan izlash kerak.

G‘oya – maqsad nafaqat ijtimoiy jarayonga, shu bilan birga tabiiy jarayonlarga ham aloqadordir. Quyosh sistemasining bir butunligi, izchilligi, sayyoralar harakati va ular o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir, yerdagi tabiiy jarayonlar-o‘simliklar olami, hayvonot olamidagi harakatlar, o‘zgarishlar, rivojlanishlar – bularning barcha barchasi aniq qonuniyatlar asosida ro‘y beradi, ma‘lum tartib-qoida negizida voqe bo‘ladi. Tabiat hodisalaridagi g‘oya – maqsad aniq belgilangan zaruriyatdir. G‘oya zaruriy tarzda tabiat hodisalarining harakati, o‘zgarishi, rivojlanishi, mavjudlik tarzini belgilaydi.

Biz g‘oyaning universal mazmuni va mohiyati haqida fikr yuritamiz. Ammo adabiyotlarda masala bu tahlitda qo‘yilmaydi. Bizning nazarimizda g‘oyaning ham umumiy mohiyatini, universal qimmatini aniqlamasdan turib milliy g‘oyaning

mohiyatini to'la ochib berish mumkin emas. Ijtimoiy hayotdagi g'oya-maqsad, tabiat hodisalaridagi g'oya-zaruriyat tarzida ifodalanib milliy g'oyaning asosini, manbaini tashkil etadi. Shu munosabat bilan S.Shermuhamedov milliy g'oyani oziqlantiradigan, uning tuzilmasini yaratadigan, mustahkamlaydigan va rivojlantiradigan obyektiv va subyektiv omillar haqida to'xtaganda boshqalar qatori geografik, geosiyosiy, tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlarning roliga ham alohida e'tibor berishi fikrini ilgari suradi.¹⁹

Yuqoridagi mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkin: g'oya – maqsad va “g'oya-zarurat” degan tushunchalarni milliy g'oya borasidagi tadqiqotlar sohasida bemalol qo'llash mumkin. «G'oya-maqsad» ijtimoiy jarayonlarning ichki mohiyati va rivojlanish yo'nalishini o'zida ifodalaydi, “g'oya-zaruriyat” tabiiy jarayonlarning ichki mohiyati va rivojlanish yo'nalishini aks ettiradi. Ikkalasi birgalikda umummilliy g'oyaning ichki mohiyati va rivojlanish yo'nalishini tashkil etadi. Aksariyat olimlar milliy g'oya faqat jamiyat hayotiga, inson faoliyatiga tegishli deb hisoblaydi. Bizningcha, tabiatdagi, koinotdagi g'oya-zaruriyatni e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. “G'oya-maqsad” ham, “g'oya-zaruriyat” ham va ularning umulashmasi umummilliy g'oya ham tabiat va jamiyatning rivojlanib borishi kabi ham cheksiz, ham chegaralangan, ham umumiy, ham milliydir. G'oyaning cheksizligi va umumiyligi tabiat va jamiyat taraqqiyotining cheksizligi bilan bog'liq, g'oyaning milliyliigi va cheklanganligi ma'lum bir davr voqealari, ma'lum bir mamlakat tarixi bilan bog'liq bo'lishidir. Shu tariqa biz umumiylikdan konkretlik tomon, cheksizlikdan cheklanganlik tomon tahlilni davom ettiramiz. Ana shu ma'noda milliy g'oya jamiyatimizning butun tarixiy taraqqiyoti jarayonida davom etib kelgan, goh yuksalgan, goh tanazzul yuz tutganligini tahkidlash maqsadga muvofiqdir.

Tarix falsafasi tadqiqotchilardan biri A.I.Rakitovning tarixiy haqiqatni aniqlashning zaruriyati haqida mulohazalari bu jihatdan xarakterlidir, U Gegelning tarixiy haqiqatni aniqlashga foydasiz bir mashg'ulot deb qaraganini, ya'ni tarix

¹⁹ Qaralsin: Shermuxamedov S. Milliy g'oya va uning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rnini. Mustaqil O'zbekiston: falsafa fanlarining dolzarb muammolari. VII kitob, 18-bet.

hech kimni hech narsaga o'rgatmaydi, har bir davr siyosatdonlari o'z bilganlaridan qolmay ish yuritib keldilar, degan fikrlariga e'tiroz bildirib, tarixiy haqiqatni bilish eng avvalo kelajakni ko'ra bilish uchun juda zarur, deb tahkidlaydi. Kelajakni aniq-ravshan ko'ra bilish oson emas, buning uchun o'tmish hodisalaridan kelajakni qanday ko'ra bilish degan masalaga javob topish kerak. O'tmishdoshlarning kelajak uchun kurashlaridagi yutuqlarini olib, xatolarini tuzatib, kelajakning yangi zamonaviy konsepsiyasini yaratish lozim.²⁰

Milliy istiqlol g'oyasi ko'p ming yillik tarixiy taraqqiyotimiz davomida mavjud bo'lib, shakllanib kelgan milliy g'oyamizning bevosita davomi, uning yangi bosqichdagi rivojidir. Faqat mana shunday yondoshuv milliy istiqlol g'oyasining nazariy manbalarini, amaliy tajribalarini mustahkam qiladi, uni yanada rivojlantirish istiqbollari ko'rsatib beradi.

Shu sababli istiqlol mafkurasini odamlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan foydalana bilish taqozo etiladi. Bu o'rinda ta'lim va tarbiya, fan va ilmiy muassasalar, madaniyat va madaniy-mahrifiy muassasalar, adabiyot va sanoat, din, jismoniy tarbiya va sport, oila, mahalla, mehnat jamoalari, siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va boshqalarning alohida o'rni bor.²¹

Milliy g'oyani yanada shakllantirish va rivojlantirgan holda uni yoshlar ong - tushunchasiga singdirish uchun biz endi muhim omillardan biri sifatida tarixiy haqiqat to'g'risida to'xtashimiz mumkin. Mustaqillikni mustahkamlashning milliy g'oyasini shakllantirish va uni jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi kuchiga aylantirish uchun tarixiy haqiqatni tiklash zaruriyati kelib chiqadi. Xo'sh, "tarixiy haqiqat" degan tushuncha nimani ifodalaydi?

Tarixiy haqiqat – bu ma'lum tarixiy davr ichida ro'y bergan yoki shaxs faoliyati bilan bog'liq bo'lgan biror bir voqeani bo'rttirmasdan, kamsitmasdan, shu voqeaning ichki mohiyatini aniqlash, uning ijtimoiy taraqqiyotda nechog'lik roli

²⁰ Qaralsin: Rakitov A.I. Istoricheskoe soznanie i istoricheskoe poznanie. M., 1982, s. 11-12.

²¹ Qaralsin: Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. 62-bet

borligini ko'rsatib berishdir. Tarixiy haqiqatni aniqlaganda ikki omil asos bo'lib xizmat qilishi mumkin:

Birinchidan, biror voqeaning mohiyatini aniqlash uchun mazkur voqea sodir bo'lgan davr nuqtai nazaridan kelib chiqib fikr yuritish. Ikkinchidan, shu voqeaning mohiyatini yoritgandan so'ng unga tegishli baho berishda o'zimiz yashab turgan zamon, jamiyat talablariga ham suyanish zarur. Demak, mohiyatni aniqlash-obyektivlik kasb etsa, unga baho berish-subyektivlikni ifodalaydi.

Tarixiy haqiqat – ijtimoiy jarayondagi voqealarni ifodalovchi eng murakkab tushunchadir. Bu tushunchani o'rganib, tahlil qilib, unga baho berishda yana bir qator muhim omillar borki, ular haqida ham to'xtab o'tish zarur.

Bular:

- * Ijtimoiy vaziyat, mamlakatda qaror topayotgan yoki qaror topgan qadriyatlar;
- * Ayni shu mamlakatda shu davrda davlat rahbari tomonidan olib borilayotgan siyosat;
- * Ayni shu mamlakatda yashovchi odamlarning dunyoqarashi, madaniy rivojlanishi, ehtiyojlari, manfaatlari;
- * Mamlakatning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni, jahon mamlakatlari bilan o'zaro aloqalarini ta'minlovchi asosiy tamoyillar;
- * Mamlakatning iqtisodiy, madaniy rivojlanishidagi ustuvor yo'nalishlar.
- * Mamlakatning uzoq kelajakka mo'ljallangan istiqbol rejalari.
- * Mamlakatda qaror topgan yoki topayotgan mafkuraviy tamoyillar.

Tarixiy jarayonlarni o'rganish, tahlil qilish va ularga baho berishda yuqorida biz sanab o'tgan tamoyillar muhim rol o'ynaydi. Bu tamoyillar na faqat tarixni, balki shu bilan birga kelajakni belgilash tamoyillari hamdir. Shuning uchun ham biror bir tarixiy izlanish, tarixiy nuqtai nazar, tarixiy tahlilning mohiyatini to'g'ri iushunmoq uchun uni yuqoridagi omillar doirasida qarab chiqmoq kerak. Shu ma'noda din haqidagi tarixiy haqiqat masalasiga e'tiborni qaratish mumkin. Din ijtimoiy hayotdagi eng muhim, ayni vaqtda ziddiyatli hodisalardan biridir. Dinning jamiyatdagi o'rni, uning inson e'tiqodi, dunyoqarashiga ta'siri, u dunyo - bu dunyo

haqidagi g'oyalari shunchalik ko'p qirrali, o'ziga xos tomonlarga egaki, dinga baho berganda ularni inobatga olish mutlaqo zarur. Buningsiz din haqidagi tarixiy haqiqatni tiklab bo'lmaydi.

Tarix mavhum g'oyalardan iborat emas. Tarix – insoniyatning ijtimoiy xotirasidir, - deb yozadi: A.G.Spirkin, - tarix insoniyatning o'z-o'zini bilishi va o'z-o'zini anglab yetishidir: hayotda yo'qolib ketgan hodisalarning inson ongida yashashidir.²²

Ayni vaqtda shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunning mohiyatini anglab yetish uchun o'tmishni bilishning o'zi yetarli emas, balki kelajakni ham chuqur tasavvur etmoq zarur. Tarixiy jarayonlar murakkab, o'ta ziddiyatli voqealar zanjiridan tashkil topgani uchun, biz mana shu ziddiyatlarning ichki mazmuni, mohiyatini ocha olsakkina tarixiy haqiqatni topish sohasida to'g'riroq yo'lga chiqib olgan bo'lamiz.

Bu hali biz tarixiy haqiqatni topdik degan gap emas. Tarixiy haqiqatni topish uchun to'g'ri yo'l tanladik, xolos.

Bizning tarixiy haqiqatni aniqlashimiz mashaqqatli mehnat bilan, katta sabr - qanoat bilan, eng muhimi - chuqur falsafiy tafakkur orqali amalga oshishi mumkin, faqat shu uchta hal qiluvchi omil - (mashaqqatli mehnat, katta sabr-qanoat, chuqur falsafiy tafakkur) bizni to'g'ri yo'ldan olg'a etaklab boradi va nihoyat tarixiy haqiqat konkret mazmunga, mohiyatga, konkret siyosatga asoslangan bo'ladi. D.Alimova yozadiki, «Haqiqiy tarixchi o'zining shaxsiy xissiyotlaridan yuqoriga ko'tarila olishi va o'tmishining xolis, har tomonlama asoslangan manzarasini yaratish kerak – bu favqulotda mumkin ish, buning uchun sabr-toqat, qobiliyat va sa'y-harakat lozim»²³

Masalaning chigalligi va murakkabligi shundaki, din tarafdorlari ham, uning muxoliflari ham o'z nuqtai nazarlarini asoslash uchun ma'lum dalillariga suyanadilar. Har qaysi tomon dinning haqligi yoki nohaqligini isbotlashaga urinishib, har ikkala tomon ham to'la haqiqatga erisha olmaydi.

²² Qaralsin: Spirkin A.G.Filosofiya. M., 2000, s.524.

²³ Alimova D. Tarix va zamon. Xalq so'zi, 2001, 27 iyul.

Dinni himoya qiluvchilar haqmi yoki uni rad qiluvchilar haqmi? Bu savolga aniq javob berish juda qiyin ish. Har ikkalasining ham haqli, ham nohaq tomonlari bor. Darhaqiqat, dinning foydali va zararli tomonlari nimadan iborat?

Din inson ruhiga kuchli ta'sir qilish orqali, uni xudoga ishonib, toat-ibodat qilib yashashga undaydi. Insonni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga, umrini halol-pok o'tkazishga, sabr-qanoatli bo'lishga chorlaydigan tamoyillari dinning asosini tashkil etadi. Din odamlarni birlashishga, ahl-birodar bo'lib yashashga undaydi.

Dinni ushlab turuvchi asosiy ustunlar uchta - o'limning muqarrarliligi, inson umrining qisqaligi, tabiat kuchlarining behisob sir asrorlari.

Dinning zararli tomonlari aksariyat holatda dindorlarning, din tarafdorlarning kirdikorlari bilan bog'liq. G'arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun din buyuk vositadir. Tarixiy taraqqiyot davomida ko'plab din peshvolari oddiy xalqqa nisbatan nohaqlik qilganlar, boylar, amaldorlar yonini olganlar, xudo nomidan so'z yuritib odamlarni majburan qaram, mute bo'lishga undaganlar, kambag'allikni, baxtsizlikni, nochorlikni xudo amri bilan asoslashga uringanlar, ayollarni ijtimoiy hayotdan chetlatishga harakat qilganlar, maktablarda quruq qiroat xonlikni avj oldirganlar.

Demak, din haqidagi tarixiy haqiqatni aniqlash va uni qayta tiklash uchun dinning mana shu yuqoridagi ikki tomonni ko'ra bilish, shundan kelib chiqib unga munosabatni belgilash zarur.

Tarixiy haqiqatni o'rganish, tahlil qilish, uni qayta tiklashda milliy g'oya asosiy me'yor, vosita, metodologiya rolini o'ynashi kerak. Har bir tarixiy voqea zahirida yashiringan g'oyani ko'ra bilish va uni tashqariga olib chiqib bilish, shu g'oyaning tub mohiyatini aniqlab, so'ng o'sha voqeani tiklashga harakat qilish zarur. Har bir voqeaning, hodisaning tub mohiyati uning zahirida yashiringan g'oyada mujassamlashadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda paydo bo'lgan aqidaparastlik oqimiga mansub bo'lgan vahhobiylik, "Hizbut-tahrir", "Musulmon birodarlar" kabi oqimlarning avj olishiga dinni boshqarishdagi ayrim xatoliklar sabab bo'lmadimikin?

Aslida, bu oqimlarning jonlanishi Sobiq Ittifoqda “qayta qurish” yillaridagi mafkuraviy parokandalik davrlaridan boshlandi. I.A.Karimov aytganidek: “... bu oqimlar yurtimizda kechagina emas, balki 80-yillardan ildiz ota boshlagan. Ularning ortida ayrim chet mamlakatlarida joylashgan, bizni o‘z ta’siriga olmoqchi bo‘lgan markazlar turgan”.²⁴

Endilikda din haqidagi tarixiy haqiqat xuddi shu din zamiridagi g‘oya asosida qayta tiklandi. Prezident Islom Karimovning oqilona siyosati tufayli bu tarixiy haqiqat quyidagilarda aks etmoqda.

Birinchidan, islom dini zamirida mavjud bo‘lgan g‘oyaning inson ruhiga kuchli ta’sir qilishini inobatga olib, bu g‘oyadan ijobiy maqsadlarni amalga oshirish yo‘lida, jumladan, odamlarni halollikka, o‘zaro ahil-birodar bo‘lib yashashga, vatan ravnaqi yo‘lida sidqidildan mehnat qilishga, bolalarni yuksak vatanparvarlik yo‘lida shakllanib borishida samarali foydalanish zarur.

Ikkinchidan, islom dini zamirida mavjud bo‘lgan g‘oyadan g‘arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun qilingan har qanday harakatlarga keskin zarba berish, jumladan, ayrim din tarafdorlarining jamiyatimizning hozirgi taraqqiyot yo‘nalishiga, hozirgi zamon sivilizatsiyasiga mos kelmaydigan, odamlarimizning yashash tarziga, ijtimoiy mehnat bilan shug‘ullanishlariga xalaqit beradigan harakatlarini qoralash vazifasi kelib chiqadi. Ayollarning paranji yopinib yurishlarini targ‘ib qilish, bolalarni yashirinchalik maktablar ochib o‘qitish, yoshlarni harbiy xizmatdan bosh tortishga undash, odamlarni majburan toat - ibodat qilishga harakat qilish va boshqalar, shular jumlasidandir.

Uchinchidan, dinning hukmron mafkura bo‘lishini amalga oshiradigan har qanday intilishning mohiyatini ochish. Din o‘z yo‘liga, davlat o‘z yo‘liga, din davlat ishlariga aralashmasligi, davlat ishlarini amalga oshirishga xalaqit bermasligi kerak. Shunday ekan, jamiyatimiz taraqqiyotiga zarar keltiradigan adabiyotlarni nashr etish va ularni tarqatishni ma’n etilishi zarur.

Tarixiy haqiqatni tiklash katta aql-idrokni, chuqur tafakkurni, ijtimoiy taraqqiyotning tub mohiyatidan kelib chiqishni talab qiladi. “Tarixda mavhum

²⁴ Karimov I.A.Xushyorlikka da’vat. T.,1999,10-bet.

hodisalar va tushunchalar bo'lmaydi. Tarix mantiqan ham, tabiatdan ham konkretlik orqali idrok etiladi va u aniq voqelik orqali o'z mazmunini, falsafasini, boshqacha qilib aytganda, o'z hukmini ko'rsatadi. Ana shu jihatdan ham nimaiki mavhum bo'lsa yoki mavhumlik orqali voqea, hodisalarga yondoshsak, u tarix haqiqatiga ziddir"²⁵.

Tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar faoliyatlari murakkabliklari, ziddiyatli bo'lib, ularga nisbatan jo'nroq, soddaroq masalalar xususida haqiqatni aytish osonroq. Ammo murakkab masalalarni tekshirib, tarixiy haqiqatni topish uchun, yuqorida aytilganidek, har tomonlama chuqur bilim, xolisona niyat, keng tafakkur zarur. Mana shunday murakkab, ziddiyatli tarixiy hodisalardan biri Amir Temur faoliyatidir, shubhasiz.

Ma'lumki, Amir Temur faoliyati va uning shaxsi uzoq yillar davomida salbiy nuqtai nazardan baholanib kelindi. Ammo mustaqillik boshlangandan so'ng Amir Temur faoliyatiga nisbatan munosabat tubdan o'zgardi, uning faoliyatini atroflicha sinchiklab o'rganish boshlandi.

Bu o'rinda marksizmning mafkurasi Amir Temurni bosqinchi, kallakesar deb ta'riflab, necha yillar davomida xalqimiz ongiga bu fikrni zo'r berib singdirib kelingan damlarda I. Mo'minov uning to'g'risida tarixiy haqiqatni aytishga dadil jur'at qildi, o'ta qattiq tazyiqlar ostida bu ishni amalga oshirdi.

Biz endi aminmizki, Amir Temur adolatparvar, erkparvar, xalqparvar buyuk sarkarda sifatida ilm, fan, sanoat, madaniyatning rivojlanishi uchun katta sharoit yaratib bergan. Amir Temur to'g'risida ko'plab ilmiy, ommabop, badiiy asarlar yaratildi. Ammo uning to'g'risidagi bor tarixiy haqiqat tiklandi, deyish uchun hali erta deb o'ylaymiz.

Birinchidan, Amir Temur faoliyatini to'la o'rganib, o'zlashtirib chiqdik, deya olmaymiz. Bu borada aytilmagan gaplar hali juda ko'pdir. Ikkinchidan, bizningcha, Amir Temur faoliyatiga xos bo'lgan ziddiyatli tomonlar, uning tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar ro'y-rost aytilgani yo'q. Inson qanchalik buyuk bo'lsa, uning faoliyatida muayyan kamchiliklar ham bo'lishi ehtimoldan yiroq emas. Bu

²⁵ Jo'rayev N. Tarix falsafasi. T., 1999, 11-bet.

yerda Amir Temur faoliyatini to'la tahlil qilmoqchi emasmiz, bu bizning vazifamizga kirmaydi. Biz faqat shuni istardikki, tarixiy haqiqatni ochish uchun hissiyotdan ko'ra aqlga erk berish kerak, voqeaning hamma tomonini e'tiborga olish zarur.

Jadidlar haqidagi, bosmachilar haqidagi tarixiy haqiqatni tiklashda ham yuqoridagidek me'yorlardan kelib chiqish zarur. Jadidlarning ruslarga nisbatan munosabatlarini olib qaraylik. Bir tomondan, ular Rossiyaning bosqinchiligi natijasida xalq boshiga kelagan kulfat, asoratlarni keskin qoralashadi, ikkinchi tomondan, rus fani, maorifidan bahramand bo'lishga chaqiradi. Bunda hech qanday ziddiyat yo'q. Chunki jadidlar rus ma'rifatparvarligi bilan rus bosqinchiligi o'rtasidagi farqni to'g'ri tushuna olgan. Rossiyaning bosqinchiligini qoralash uchun uning ko'p asrlik ilg'or fani, madaniyati, sanoati rolini erga urish adolatdan emas. Endilikda biz sobiq ittifoq siyosatini qoralayotganimizda bu me'yorlarga hamma vaqt ham amal qilolganimiz yo'q. Umuman sobiq ittifoq haqidagi tarixiy haqiqatni to'la va asosli ravishda birorta tadqiqotda uchratmaymiz. Shunisi yomonki, sobiq ittifoqning salbiy tomonlari haqida ko'p gapiramiz, shu gaplarimiz aksariyat hollarda yuzaki, hissiyotdan holi bo'la olmaydi.

Ikkinchi tomondan, sobiq ittifoq tarkibida O'zbekistonda 70 yil ichida ro'y bergan ulkan ijtimoiy o'zgarishlarni nisbatan kam tilga olamiz. Holbuki, tarixiy haqiqat vaqtinchalik kayfiyatga, kimlarningdir istagiga bo'ysunmaydi, tarixiy haqiqat bor narsani bor, deyishga da'vat etilgandir. Bor narsani bor deyish uchun nafaqat bilim, balki katta jasorat ham kerak.

Bosmachilar haqida ham bir tomonlama fikrlarlar mavjudligi hech kimga sir emas. To'g'ri, bosmachilik Sovet Ittifoqining zo'rovonligi, sharqdagi noto'g'ri siyosati tufayli kelib chiqqan. Ammo bosmachilik ongli, chinakam milliy maqsadga qaratilgan harakat bo'lganmi? Bosmachilik stixiyali jarayon bo'lib, harqaysi to'da o'zining g'or maqsadlaridan tashqari chiqa olmagan. Ular yerli xalqni talagan, begunoh odamlarni o'ldirgan, o'z niyatiga erishish uchun hech narsadan qaytmagan.

Har bir xalq, har bir millat, har bir fuqaro o'z o'tmishini yaxshi bilishi kerak. O'tmishi yo'q xalqning kelajagi ham yo'q. O'tmishni o'rganishning, tarixiy haqiqatni tiklashning zaruriyati haqida yurtboshimizning quyidagi murojaati tarixni o'rganish borasida katta ishlarni amalga oshirishga turtki berdi: "O'zbek xalqi qachon paydo bo'lgan? Millatimiz qachon va qanday shakllangan? Milliy davlatchiligimiz asoslari nimalardan iborat? Xullas, o'tmishimizning hamma tomonlarini bilish taraqqiyotimizning hozirgi bosqichi va kelajak rejalarimizni amalga oshirish uchuun juda zarur. Barcha xatti-harakatlarimiz, izlanishlarimiz asosida tarixiy haqiqatni aniqlash turadi"²⁶

Tarixiy haqiqatning tiklanishi milliy g'oyaning yoshlar ongiga sig'ishiga, jamiyatimizning yanada ravnaq topishiga keng yo'l ochadi.

Tarixda yuz foiz ijobiy, yoki yuz foiz salbiy voqea ro'y bermaydi. Har bir voqealik, hodisaning, har bir shaxs faoliyatining o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari bo'ladi. Hamma gap mana ijobiy va salbiy tomonlarning nisbatini to'g'ri baholashda. Bu borada ba'zi fikrlarni qayd etish zarur, deb hisoblaymiz.

Birinchi tomndan, ayrim hollarda tarixnavislar, umuman tarixiy voqea, tahlil qiluvchilar voqealar, hodisalar, shaxslar faoliyati zamirida yotgan ijobiy va salbiy tendensiyalarni to'g'ri baholay olmay qoladilar. O'ta maqtab yuboramiz, kamchiliklar haqida gapirgimiz kelmaydi, yo o'ta qoralab yuboramiz, ijobiy tomonlar xotiramizdan ko'tariladi. Bunday kamchilik o'tgan zamonlar tarixchilari faoliyatida ham, hozirgi zamon tarixchilari faoliyatida ham ko'rinadi. Bu umuman odamzodga xos illat. Aql idrokdan ko'ra hissiyotga berilish shunga olib keladi.

Voqealar, hodisalar, shaxslar faoliyati ortiqcha maqtaganda ham, ortiqcha qoralaganda ham tarixiy haqiqat buziladi. Tarixiy haqiqatning buzilishi hayot haqiqatining buzilishiga olib keladi. Hayot haqiqatining buzilishi yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladi. Odamlarda, xususan yoshlarda ilg'or dunyoqarashning, izchil e'tiqodning, mustahkam irodaning shakllanishi ko'p tomondan ular ongiga singdirilayotgan tarixiy haqiqatning yuksakligi, haqqoniyligiga bog'liq.

²⁶ Jo'raev N. Tarix falsafasi. T., 1999, 11-bet.

Xususan ayrim voqealar, hodisalar, shaxslar faoliyati haqida kimdir o'ta maqtoqli, kimdir o'ta salbiy fikrlar bildirayotgan bo'lsa, yoki kimdir xolisona fikr yuritishga harakat qilib, ham ijobiy, ham salbiy tomonlar haqida yozganda ham, ammo bu ijobiy va salbiy tomonlarning nisbati hayot haqiqatidan uzoq bo'lsa, bunday holatlarda yoshlar ong tushunchasida ziddiyatlar paydo bo'ladi, natijada kelajakni belgilash ham mana shunga mos holda baland - past g'oyalardan tashkil topadi.

Ikkinchi tomondan, tarixiy haqiqatni aniq ravshan ochib berishning bir necha usullari, yo'llari mavjud. Bulardan eng muhimi shu voqea, hodisa, shaxs faoliyati zahirida mavjud bo'lgan g'oyani to'g'ri bilish, aniqlash va ta'riflab berishdir. Biz bu haqda takror-takror fikr yuritayotganimizning sababi shundaki, tarixiy jarayonlarning asosini tashkil etgan, shu jarayonlarni harakatga keltirgan g'oyani aniqlash juda qiyin, ammo shu bilan birga juda zarur ishdur.

Har bir voqeaning, hodisaning, shaxs faoliyatining ichki mazmuni, rivojlanish yo'nalishlari va hayotiy natijalari shu voqea, hodisa, shaxs faoliyatining asosini tashkil etgan. Maqsad g'oyaning nechog'lik xaqqoniyligi, ijobiylik, progressivligi bog'liq. Bundan shunday xulosa chiqadi: tarixiy haqiqatning xaqqoniylik uning zahiridagi g'oyaning xaqqoniylik bilan belgilanadi. Demak, tarixiy haqiqatning mohiyatini to'g'ri ochish uchun milliy g'oyaning mohiyatini chuqur, har tomonlama o'rganish zarur.

Tarixiy haqiqatni tiklash, to'g'ri va xaqqoniy ko'rsatib berish uchun muayyan zaruriy shart-sharoitlar mavjud.

Tarixiy voqealar, hodisalar, shaxslar faoliyatini tekshiruvchi, o'rganuvchi va baholovchida chuqur bilim, aql-idrok va katta tajriba bo'lishi zarur. Bilim, aql, tajriba – bu uchala omil bir-biri bilan shunchalik uyg'unlashgan, biri ikkinchisini to'ldirgan holda namoyon bo'lsa, demak, tarixiy haqiqat va uning asosini tashkil etgan g'oyaning mohiyatini chuqurroq tushunish va uni har tomonlama ochib berish imkoniyati paydo bo'ldi. Buning uchun tadqiqotchida dialektik tafakkur qaror topgan bo'lishi zarur. Dialektik tafakkurning to'rtta muhim talabini eslatib o'taylik.

Birinchidan, o'rganilayotgan voqeaning, hodisaning, shaxs faoliyatining ichki mohiyatini aniqlash;

Ikkinchidan, shu voqea, hodisa, shaxs faoliyatining boshqa voqealar, hodisalar, odamlar faoliyati bilan uzviy aloqasi, birligini aniqlash;

Uchinchidan, shu voqea, hodisaning shaxs faoliyatini keltirib chiqargan, shakllantirgan asosiy manbalarini belgilashdagi rolini aniqlash.

To'rtinchidan, mazkur voqea, hodisa, shaxs faoliyati bilan bog'liq bo'lgan, kelgusida ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea hodisalarni o'rganish zarur.

Tadqiqotchi dialektik tafakkurning mana shu talbalariga so'zsiz amal qilish zarur. G'arbu-Sharqning o'tmishda o'tgan buyuk olimlari Arastu, Aflotun, Suqrot, Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Xorazmiy, Gegel va boshqalar dialektik tafakkurning yuqoridagi talablariga qat'iy rioya etganlari holda o'z asarlarini yozganlar. Bir guruh mualliflar tomonidan tarix falsafasiga bag'ishlab yozilgan o'quv qo'llanmada hozirgi paytda olimlar o'rtasida kuchli tortishuvlarga sabab bo'layotgan formatsiya, "sivilizatsiya" tushunchalari haqida chuqur mulohaza yuritiladi. Birinchidan, butun insoniyat tarixini beshta formatsiyaga sig'dirib bo'lmasligini, Marksning bu nazariyasining Sharq xalqlari tarixini to'la aks ettira olmasligi, bazis va ustqurma o'rtasida bevosita aloqa ba'zan bo'lmasligi, xullas, mana shunga o'xshash dalillarga asoslanib, sivilizatsiya tamoyilining afzalliklari isbotlab beriladi.²⁷

Tarixiy haqiqatni haqqoniy baholashning yana bir muhim sharti aql-idrok va his-tuyg'u uyg'unligidir. Hissiyotisiz chuqur ilmiy tahlil voqe bo'lmaydi, ammo hissiyot chegaradan chiqib ketsa, tarixiy haqiqat to'la ochilmay qoladi. Yozuvchi, san'atkor aqlidan ko'ra hissiyotga ko'proq erk bersa, tarixchi, aksincha, hissiyotdan ko'ra aqlga keng erk berishi kerak, boshqacha aytganda, ilmiy tadqiqot jarayonida hissiyot aql - idrok, bilim, tajribaga bo'ysinishi kerak. Yurak yonib tursa ham, miya sovuqqon bo'lishi zarur, sovuqqonlik – holisonalik garovi. Aqlli odamlar og'ir, vazmin, sovuqqon bo'ladilar.

²⁷ Qaralsin: Filosofiya istorii. M.,s. 375-386.

Tarixiy haqiqatni chuqur va har tomonlama haqqoniy yoritishning yana bir muhim sharti bor. Bu haqda Narzulla Jo'raev o'z kitobida mana bu tarzda yaxshi gaplar aytish: "tarixga to'g'ri yondashish, uni to'g'ri tushunib, to'g'ri tadqiq etish uchun biz o'zimizni tarixiy taqdirga qo'shib yuborishimiz, uning ichida yashashimiz kerak... Tarixni o'rganishda muarrihlarimiz sanalar va voqealarni tahlil etish bilan birga, ularning ortida turgan taqdirlar, kechinmalar, ruhiyatlar, manfaatlar va hokazolar girdobida ham yashamog'i kerak... Tarixga munosabatda, uni o'rganayotganda butun tarixiy jarayon mening hayotim, butun kishilik o'tmishi mening o'tmishim degan fikr bilan yashasha lozim".²⁸

Darhaqiqat, o'tgan bir davrni o'rganayotgan odam, o'zini o'sha davrga qo'yib ko'rishi juda qiyin, ammo juda zarur ish. O'rganilayotgan davrni baholash uchun biz oldingi sahifalarimizda ettita eng muhim omilni ko'rsatib o'tganmiz. Mana shu ettita omildan kelib chiqib, tadqiqot olib borilsa, voqealarning ichki sir-asrori to'laroq namoyon bo'la boradi, bir qarashda, tasodifiy ko'ringan voqealarning sabablari ochiladi, jumboqlar echiladi, yaxshi-yomon tomonlarning nisbati to'g'ri belgilanadi.

Yoki tarixchi olim Azamat Ziyoning "O'zbek davlatchiligi tarixi" nomli katta tadqiqotini olaylik. Bu kitobda ko'p ming yillik tariximiz batafsil tahlil etiladi. Turli-tuman siltanatlar, urushlar, ijtimoiy - siyosiy voqealarni yoritish uchun muallif juda katta xajmdagi materialni yig'gan. Ammo kitobda bayonchilik usuli ustivorlik qiladi. Muallif voqealarni tasvirlab berish bilan cheklanadi. Xuddi shu voqealar zamirida yotgan milliy g'oya to'la-to'kis ochilmay qolgan, joylar ko'pchilikni tashkil etadi.

Tarixchi olimlardan V.S.Shmakov tarixiy haqiqatni aniqlash uchun tarixni ikki aspektda olib qarash lozimligini ko'rsatadi. Tarix fan sifatida va tarix jarayon sifatida tadqiq etilishi lozim. Albatta, tarixiy jarayonlarni tarix fanidan alohida olib qarab bo'lmaydi. Ammo tarixiy jarayonlarning hammasi ham tarixiy qonuniyatlar doirasiga kiravermaydi. Ikkinchi tomondan, tarixiy fanlar jarayonlar orqali voqe bo'ladi. Tarixiy haqiqatni o'rganish, uning natijalarini xalqqa yetkazish uchun,

²⁸ Jo'raev N. Tarix falsafasi. T., 1999, 12-bet.

albatta, birinchi navbatda tarixiy jarayonlarni o'rganish kerak. Ma'lum bir tarixiy davrdagi voqealarning ro'y berishi sabablari, ularning oqibatlari, ehtiyojlari – bular tarixiy jarayonlar bo'lib, shular asosida tarixiy qonuniyatlar haqida ma'lum xulosalarga kelish mumkin.²⁹

Ilmiy tadqiqotda adolat me'yoriga amal qilish muallifdan, tadqiqotchidan katta mas'uliyatni talab qiladi. To'g'ri, bizning boy tarixiy merosimizni chinakam o'rganishga to'sqinlik qildilar, bizni kamsitdilar, izzat-nafsimizni erga urdilar, uzoq vaqt bizni rivojlanmagan, katta boy o'tmishga, chinakam insoniy an'analar ega bo'lmagan xalq deb hisoblanadilar. Biz bu adolatsizlikni bartaraf etishimiz, o'zimizning kimligimizni jahon jamoatchiligiga havola etishimiz kerak. Ammo biz bu niyatni amalga oshirish uchun ha deb o'zimizni, tariximizni, madaniyatimizni ko'klarga ko'tarib maqtavorsak, bizning bu maqtanchoqligimiz jahon tadqiqotlariga, mutaxassislarga, davlat rahbarlariga noxush ta'sir qilishi tabiiy.

Prezident Islom Karimov ham o'z asarlarida, nutq va ma'ruzalarida uzoq tariximiz davomida ro'y bergan illatlar haqida ham, hozirgi kunda taraqqiyotimizga to'g'anoq bo'layotgan illatlar haqida ham tez to'xtab turadi. Xususan, hozirda yangi jamiyatni barpo etish uchun, iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy islohotlarni amalga oshirish uchun qilayotgan harakatlarimizga nimadir xalaqit berayotgani haqida savollar bilan xalqqa murojaat qilib turarkan, Prezident tarixiy haqiqatni tiklashda yaxshi-yomon tomonlarning nisbatini to'g'ri belgilash haqida qayg'uradi.

Demak, biz hozir milliy g'oya shakllanishining asosiy manbalaridan, asoslaridan biri bo'lgan tarixiy haqiqatni tiklash haqida fikr bildirar ekanmiz, tarixiy haqiqatni tiklashning mana shu ikki tomoni haqida, ya'ni barcha ijobiy hodisalar bilan birga salbiy hodisalarga ham to'xtashni zarur deb hisoblaymiz. Biz tariximizda bo'lgan, hozir ham ayrim holda davom etayotgan ayrim illatlarni ochib tashlash orqali ularni bartaraf etish haqida ham bosh qotiramiz. Kamchilikni ko'rsatish uni tuzatish demakdir.

²⁹ Qaralsin: Shmakov V.S. Struktura istoricheskogo znaniya i kartina mira. Novosibirsk, «Nauka», 1990, s. 213.

Avvalo, milliy g'oya, ya'ni mustaqillikni mustahkamlashning milliy g'oyasi tarixan tarkib topgan, ko'p ming yillik tarixiy taraqqiyotimiz davomida shakllanib kelgan milliy g'oyaning yangi bosqichdagi rivojidir.

Milliy g'oyaning ko'p ming yillik tarixiy shakllanishida va namoyon bo'lishida turli bosqichlar bo'lgan. Milliy g'oyaning shakllanishiga tarixiy vaziyatlarning ta'siri aniq va kuchli bo'lgan. Lekin milliy g'oya hech qachon vaziyatning quli bo'lgan emas. Milliy g'oyaning vaziyatdan yuqori ko'tarilgan davrlari ham bo'lgan.

Milliy g'oyaning nechog'lik shakllanganligi vaziyatdan yuqori ko'tarilganligi, yoki ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan pasayib ketishi bularning hammasi asosan xalqning, millatning o'z xaq-xuquqlari, erkinligi, ozodligi uchun jiddiy kurash olib borishi bosqichlari bilan bog'liq.

Erk va ozodlik uchun, tinchlik va farovonlik uchun kurashda xalqning harakati faollashgan paytlarda odamlar o'rtada yagona maqsad sari uyushib, harakat qilish istagi jo'sh urgan damlarda, xalq o'rtasidan xaqiqiy kurashchan qahramonlar etishib chiqqan hollarda milliy g'oya izchil va barqaror yo'nalish kasb etgan, odamlarni birlashtirish va kurashga safarbar qilishga xizmat qilgan. Zolimlarning qo'li ustun kelib, xalq balo ofatlarga giriftor bo'lgan, xalqning ruhi pasayib, kurashga madori qolmagan paytlarda milliy g'oya ham tushkunlikka tushgan, o'z ta'sir kuchini yo'qotib borgan.

Tarixiy taraqqiyotimizga nimalar xalaqit bergan?

Birinchi navbatda qonimizda, turmush tarzimizda mavjud bo'lib, asrlar osha avloddan avlodga o'tib kelgan, hozir ham ma'lum ma'noda davom etayotgan eng muhim illatlardan biri – bu mansabparastlikdir. Prezidentimiz o'z asarlarida bu illat haqida bir necha bor to'xtab, uni balo ofat deb ataydi va undan xalos bo'lish yo'llarini izlab topishga daovat etadi.

G'oyaviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlik esa millatning birdamligi, davlatning qudratiga putur etkazadi, uning taraqqiyotini orqaga surib yuboradi. Masalan, Chingizxon bosqini, Chor istilosi davrlarida ayrim hukmdorlarning xalqni birlashtirib kurashga safarbar etmagani o'lkamizning qaramlik changaliga

tushib qolishiga sabab bo'ldi. Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariya, ta'limot va mafkurani yaratish uchun imkoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovot iste'dod va teran tafakkur egalari mislsiz zahmat chekkanlarini ko'ramiz.³⁰

Tarixiy jarayonlarni diqqat bilan qarab chiqsak, to'xtovsiz urushlar bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Bu urushlar xalq boshiga behisob kulfatlar yog'dirgan, dehqonchilik, xunarmandchilik, ilm-ma'rifat, madaniyat rivojiga keskin salbiy ta'sir qilgan. Bu urushlarni ichki urushlar va tashqi urushlarga bo'lish mumkin. Ichki urushlar bir mamlakat ichida, bir saltanat doirasida ro'y bergan. Hokimiyat talashish hissi otani bolaga, bolaning otaga, akani ukaga dushman qilib qo'ygan. Mansabparastlik dardiga uchraganlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun har qanday qonxo'rlik, jirkanchlikdan qaytmaganlar.

Tashqi urushlar mamlakatlar o'rtasida, saltanatlar o'rtasida ro'y bergan. Buni bosqinchilik urushlari deb atash mumkin. Kuchli mamlakat, saltanat kuchsiz saltanatlarni o'ziga tobe qilgan. Bunda ham o'sha la'nati illat – mansabparastlik katta rol o'ynaydi. Amir Temur 27 mamlakatni bosib olib, cheksiz bir katta imperiya tuzgan. Uning maqsadi – shu mamlakatlar o'rtasida doimiy tarzda bo'lib turgan qirg'inbarot urushlarga barham berish edi. U ma'lum vaqt ichida shunga erishgan.

Amir Temur davlatining tashkil topishi, yashashi, rivojlanishi va Temur vafotidan so'ng asta-sekin tarqalib ketishi quyidagi tarixiy haqiqatni isbotlab turibdi. Ya'ni, o'zaro qirg'in urushlarga barham berish, xalqlar uchun tinch, xotirjam rivojlanishni tahminlashdan mamlakatlarni bosib olib, ularni yagona markazlashgan davlatga aylantirish vaqtinchalik bir chora bo'lgan. Tarixiy haqiqat shundan iboratki, ko'p mamlakatlarni birlashtirib, tuzilgan katta imperiyalar uzoq davr, asrlar davomida yashay olmagan. Tarixiy haqiqatni tan olish, tarixiy haqiqatni harakatga keltiruvchi asosiy kuch – milliy g'oyaning mohiyatini yuqori ko'tarish uchun eng avvalo odamlarni, eng avvalo mansabdorlarni, rahbarlarni, hokimlarni mansabparastlik dardidan xalos etish kerak.

³⁰ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: 2000, 15-10-betlar.

Mansabparastlik illati hozirgi hayotimizga, taraqqiyotimizga to'siq bo'lib turgan hodisalardan biridir. Shuning uchun yoshlarni tarbiyalashda, ularda ilg'or dunyoqarash va izchil etiqodni shakllantirishda eng asosiy e'tiborni mana shu illatga qarshi qaratish kerak. Bolalar kichiklikdan, go'daklikdan mansabparastlik, molparastlik, boylikparastlik, ochko'zlik, ta'magirlik ofatlardan xolos bo'lib o'sishlari zarur. Buning uchun tarixiy haqiqatning mohiyatini to'g'ri ochib berishimiz kerak, o'ngga ham, so'lga ham og'masdan, haqiqatni ochiq tan olishimiz hozirgi kunda mustaqillikni mustahkamlash uchun milliy g'oya, milliy mafkuraning rivojlanish va yoshlarga ta'sir qilish yo'nalishini to'g'ri belgilashimiz zarur.

Shunday qilib, bugungi kunda xalqimizning tarixi tiklanmoqda. Bu birinchidan. Bu tiklanayotgan tarixiy haqiqat xalq qalbiga qanday yetib bormoqda? Milliy g'oyamiz ravnaqiga qanday hissa qo'shmoqda?

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelishi mumkin:

Birinchidan, uzoq tarixiy davrlar davomida shakllangan, avloddan-avlodga o'tib kelgan boy merosimizni o'rganish, chuqur his qilish odamlarimiz qalbi va ongida katta faxrlanish tuyg'ularini uyg'otmoqda. Kelajagimizning poydevori asosiy harakatlantiradigan kuchi bo'lib turgan milliy istiqlool g'oyasi uzoq tariximizning turli davrlarida ham mavjud bo'lib, odamlarga erk, ozodlik uchun kurashga chorlagan, har bir insonning vatan ravnaqi yo'lida tinmay mehnat qilish ehtiyojlarini shakllantirgan, xalqimiz o'rtasida ahillik, birodarlik tamoyillarini qaror toptirgan. To'maris, Spitamen, Shiroq, Mahmud Torobiy, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Amir Temur kabi erk uchun kurashchilar milliy g'oyani bayroq qilib baland ko'targanlar, unga sodiq qolganlar.

Ikkinchidan, tarixiy haqiqatning tiklanishi natijasida shu qadar boy va rang-barang tarixiy merosimizni bugungi kunda yanda yuqoriroq ko'tarishimiz kerak, uni yanada boyitishimiz va shu asosda yuksak yutuqlarga erishib, uni kelgusi avlodlarga qoldirishimiz kerak, degan tushunchani yoshlar qalbiga payvand etish zarur.

2.2. Milliy g'oya – millatlararo totuvlikning tarixiy-ma'naviy negizi.

Respublikamizda qaror topayotgan fuqarolik jamiyati tub mohiyati bilan ko'p millatlikka asoslangan jamiyatdir. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ham, ma'naviy yuksalishni tahminlashda ham, umuman davlat siyosatining barcha yo'nalishlarida millatlararo munosabatlarga katta e'tibor berishi zaruriyati o'z - o'zidan ko'rinib turibdi.

“Millatlararo totuvlik g'oyasi – umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, xizmat qiladi. Bu g'oya – bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro xurmat va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Bu g'oya – ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.”³¹

Millatlararo munosabatlar ancha murakkab ichki bog'lanishga ega bo'lib, bu murakkab o'ziga xos jarayonni chuqur tahlil qilib, ilmiy asoslangan milliy siyosat ishlab chiqilmasa, ijtimoiy taraqqiyot izdan chiqib ketishi mumkin. Binobarin, “ko'p millatli va ko'p tilli mamlakatlarda o'z davlatlariga nom bergan asosiy millat bilan bu mamlakatlarda istiqomat qiluvchi etnik ozchilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ichki siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlikning hal qiluvchi shartlaridan biri bo'lib qolmaqda.”³²

Milliy siyosatda nafaqat tarkib topgan millatlararo munosabatlarning asosiy tamoyillari, balki shu bilan birga jamiyatda yashayotgan barcha oz sonli millatlarning tarixiy rivojlanishi an'analari, madaniyati, turmun tarzi aks etishi kerak. Har bir oz sonli millatning rivojlanish darajasi, uning madaniyati, tili, urf-odatlarining nechog'lik himoyalanganligi eng muhim masaladir.

Iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy jihatdan ular ozgina bo'lsa-da kamsitilsa, jamiyatda shovinizm kuchayib ketadi, millatlararo munosabatlarda parokandalik

³¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. 59-bet

³² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. 69-70 betlar

boshlanadi, “bu davlat va millat xavfsizligiga, mintaqaviy va keng ko‘lamdagi xavfsizlikka ancha kuchli tahdidga aylanib ketishi mumkin”.³³

Mustaqil respublikamizda olib boriayotgan milliy siyosatda millatlararo munosabatlarning ikki muhim tomoni alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Birinchidan, yuqorida ta’kidlaganidek, oz sonli millatlar manfaatlari hamma sohada jiddiy himoyalanoqda, qonuniy kafolatlanmoqda. Binobarin, jamiyatda yashayotgan har bir millat o‘z iqtisodiy ta’minotiga, ish bilan bandligiga, o‘z tili, madaniyati, an’analarini rivojlantirib borish imkoniyatlariga ega bo‘lishi zarur.

Ikkinchidan, davlat tomonidan ularning barcha manfaatlari himoyalanganligiga javoban oz sonli millat vakillari ham jamiyatda ro‘y berayotgan barcha jarayonlarga faol ta’sir etishlari, shu negizda faoliyat ko‘rsatishlari, davlat siyosatini qo‘llab - quvvatlagan holda O‘zbekistonning yanada gullab-yashnashiga o‘z hissalarini qo‘shishlari lozim.

Millatlararo munosabatlardagi bu ikki qarama-qarshi qutbni birlashtiradigan asosiy ma’naviy kuch – milliy g‘oyadir. Milliy g‘oya puxta ishlab chiqarilgan, izchil tamoyillar asosida rivojlanib boradigan bo‘lsa, unda jamiyatdagi har bir fuqaro millatidan qat’iy nazar bir xil imkoniyatlarga va bir xil burch hamda mas’uliyatga ega bo‘ladi. Adabiyotlarda to‘g‘ri ko‘rsatilganidek, O‘zbekiston hududida qadim-qadimdan ko‘plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o‘rtasidagi asrlar davomida milliy nizolar bo‘lmagani xalqimizning azaliy bag‘ri kengligini ko‘rsatadi.³⁴

Milliy g‘oyaning tarixan tarkib topishi va rivojlanib kelishining asosiy omillaridan biri – millatlar, xaqqlararo o‘zaro munosabatlarning namoyon bo‘lishida quyidagi holatlar muhim rol o‘ynaydi: Avvalom bor, davlatning siyosiy tizimi, huquqiy va ahloqiy meoyorlar, mahalliy hokimiyat faoliyatidagi asosiy yo‘nalishlar millatlararo munosabatlarga bevosita ta’sir qiladi. Binobarin, millatchilik shunday bir ofatki, uning kelib chiqishi va kuchayib borishiga andak e’tibor berilmasa, u tezda keng yoyilib, xunuk oqibatlarni keltirib chiqaradi.

³³ Karimov I. A. Yuqoridagi asar, 74-bet

³⁴ Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. 60-bet.

Xususan, erli millat boshqa millat vakillariga ko‘pincha tazyiq o‘tkazishga moyil bo‘ldai. Bu moyillik o‘z eriga, o‘z boyligiga bo‘lgan xo‘jayinlik tuyg‘usi bilan bog‘liqdir. Tug‘ilib o‘sgan, kindik qoni tomgan tuproq uning uchun muqaddasdir, uni ko‘rkam va obod qilib yashash milliy burchdir. Ammo hech qachon, hech qerda faqat bitta millat, bitta xalqdan iborat davlat, jamiyat bo‘lgan emas. Oz bo‘lsa ham o‘zga millat vakillari bilan boshqa millat vakillari hududlarida umrguzaronlik qilishganligiga tarix guvohlik beradi. Bu tarixiy qonuniyatni tan olish va uni oqilona hal qilish zarur. Tabiiyki, har bir etnik birlikni saqlab qolish unga mansub odamlarning eng muhim maqsadidir.

S.Shermuhamedov yozganidek, “ko‘p asrlik tariximizning taqozosi bilan mamlakatimizda bir millatlik emas, balki ko‘p millatlik qaror topdi va shu sababli millatlararo totuvlik, boshqa imon-e‘tiqodlilarga hurmat, barcha odamlarga muruvvatli bo‘lish kabi insonparvarlik g‘oyalari g‘oyat zarur. Bu o‘rinda gap shunchaki yaxshi niyatlar, mavhum gumanistik tamoyillarga ko‘r-ko‘rona ergashish haqida emas, balki kishilarning hayotiy muhim manfaatlari va ehtiyojlarini qondirish to‘g‘risida, jamiyatimizning tezkor rivoji va uning hozirgi jahon sivilizatsiyasi tizimiga qo‘shilishi haqida bormoqda”³⁵

Tarixiy taraqqiyotni ko‘z oldimizga keltirsak, ziddiyatlar, kurashlar, urushlarning asl sabablarini aniqlamoqchi bo‘lsak, podshohlar, xonlar, amirlar, beklar va davlat tepasida turgan boshqa amaldorlarni birinchi navbatda hokimiyat, mansab va ma‘lum territoriyadagi erlar, boyliklar qiziqtirganligini ko‘ramiz. Oqibat-natijada toj-u taxt, boylik, o‘zga xududlarni qo‘lga kiritish uchun to‘xtovsiz kurashlar, to‘qnashuvlar, urushlar bo‘lib turgan. Qaysi millat, qaysi xalqning vatani qayer, u qayerda yashayapti – bu bilan hech kimning ishi bo‘lmagan. Asosiy me‘yor – bo‘ysunish, tobe bo‘lish va diniy e‘tiqoddur. Bo‘ysunish, tobe bo‘lish diniy e‘tiqoddan ham ustunlik qilgan.

Azamat Ziyoning “O‘zbek davlatchiligi tarixi” asarida bu jarayonning murakkab ko‘rinishlari o‘z ifodasini topganligini qayd etmoqchimiz. Shu asardan bir parcha keltirishni lozim topdik: “shunday qilib, sobiq temuriylar saltanati

³⁵ Shermuhamedov S. Biz qanday jamiyat qurmoqdamiz. -Toshkent, “O‘zbekiston”, 1999, 12-bet

barbod bo'lishi bilan XVI asrda Turon va Eronda ikki siyosiy kuch – shayboniylar va safaviylar (qizil boshlilar) faoliyat ko'rsata boshlaydi... 1510 yili Marv atrofida Muhammad Shayboniyxon va safaviylar sardori Ismoil (1510-1524) o'rtasida jang yuz beradi, bu jangda Shayboniyxon halok bo'ladi. Ismoil buyrug'iga ko'ra uning kallasi olinib, po'sti shilinadi, po'st ichi somon bilan to'ldirilib, safaviylarning G'arbdagi dushmanlari bo'lmish usmoniylar hukmdori Sulton Boyazid II (1481-1512) huzuriga jo'natiladi. Bu bilan Ismoil usmoniylar hukmdoriga o'z qudratini ko'rsatib qo'yimoqchi bo'lgani aniq. Muhammad Shayboniyxon bosh chanog'iga kelsak, Ismoil uni oltin bilan qoplab, bazmu - jamshidlarda unga may quyib, qadah o'rinda foydalangan".³⁶

Bu vaxshilik, johillikning eng yuqori nuqtai emasmi? Bu – mansabparastlik illatining yorqin namunasi emasmi? Millatidan, hatto diniy e'tiqodidan, qayerda yashashidan qat'iy nazar bo'ysunganlar omon qolgan, bo'ysunmaganlar, yo boshqa bo'ysunmaganlarni bo'ysundirishgan, yo o'zlari jahannam qa'riga uloqtirib tashlangan. Bu voqealar hamma joyda, har doim, yillar, asrlar davomida ro'y berib turgan. Bu urushlar xalqlar boshiga katta kulfatlar yog'dirgan. To'g'ri, adolatparvar hukmdorlar ham bo'lgan, ammo ular ham chetdan bo'ladigan to'xtovsiz tazyiqlar natijasida urushlar olib borishga majbur bo'lganlar. Bunda ham o'sha qoida, g'oya – bo'ysunishga majbur etish asosiy mezon bo'lib qolavergan. Adolatli hukmdor ham bo'ysunmaganni yo'qotish poyiga tushganligi ma'lum.

Markaziy Osiyo xalqlari, O'rta va Yaqin Sharq xalqlari asosan til jihatidan ikki qismni tashkil etganlar. Bular turkiy tilda va forsiyda gaplashuvchilar. Biroq shuni ham ta'kidlash joizki, turkiy zabonlarforschani, forsiygo'ylar esa turkchani yaxshi bilishgan.

Yuqoridagilar asoslanib turib, shunga amin bo'lish kerakki, bu o'zaro qirg'in urushlar girdobida, bu taxt uchun, mansab uchun o'zaro olishuvlar iskanjasida milliy g'oyaning tarkib topishi, namoyon bo'lishi o'ziga xos ko'rinishlarga egadir. Bu hukmron mafkura yo'nalishi va oddiy xalqning turmush tarzi bilan bog'liq yo'nalishdir.

³⁶ Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi.

Ma'lum mamlakatda hokimiyatning turli boqichlarini egallab turgan barcha amaldorlarni birlashtirib turgan umumiy mafkura, umumiy g'oya asosan bosh hukmronning dunyoqarashi, tafakkuri, tushunchalariga bo'ysingan. Bunda ham asosan o'sha yuqoridagi tamoyil – bo'ysinish tamoyili xukmronlik qilgan. Bosh hukmronning dunyoqarashi bilan bog'liq g'oyani barcha amaldorlar tan olishlari va uni bajarishlari shart hisoblangan. Bu bosh g'oyani tan olmaguncha ularning qarshiligi bostirilar edi. Shu tariqa hamma gap bosh hukmronning nechog'lik adolatligi, xalqparvarligi, vatanparvarligi, uning nechog'lik o'qimishli, madaniyatli, ma'naviyati yuksak ekanligi bilan bog'liq.

Oddiy xalqning turmush tarzini aks ettiruvchi milliy g'oya hukmron mafkurada namoyon bo'ladigan g'oyadan bir muncha farq qilgan. Bosh xukmron ancha xalqparvar bo'lganda bu ikki g'oyaviy yo'nalish o'rtasidagi ziddiyat pastroq bo'lgan, aks holda bu ziddiyatlar juda keskinlashib ketgan. Oddiy xalqning orzulari, ehtiyojlari, maqsadlarini ifodalovchi g'oyalar uning an'analarida, axloqiy normalarida aks etgan. Shuning uchun ham tarixiy haqiqatni aniqlash va uning eng muhim yo'nalishlarini ochib berar ekanmiz, ro'y bergan barcha ijobiy va salbiy hodisalarni ro'y-rost o'z nomi bilan aytishimiz kerak. Bu borada quyidagilarni ta'kidlab o'tish lozim.

Xalqning turmush tarzini ifodalovchi, uni birlashtirib, olg'a kelajak tomon boshlovchi milliy g'oya ancha izchil va barqaror bo'lgan. Ammo hukmron mafkurada aks etuvchi milliy g'oya uzoq muddatli izchilikka va barqarorlikka ega bo'lmagan. Bosh hukmronning o'limi va taxtdan ketishi bilan mavjud xukmron mafkura va g'oya ham yangi hukmronning dunyoqarashiga bog'liq holda o'zgarishga uchragan.

Milliy g'oyaning mana shu tariqa yuqoridagi ikki yo'nalish asosida rivojlanishi millatlararo munosabatlarni ham aks ettirgan. Ma'lum xukmron egallab turgan davlat xududidagi barcha xalqlar, millatlar, elatlar xuddi shu xukmron mafkura ta'siri ostida yashashga majbur bo'lgan. Ikkinchi tomondan, har bir xalq o'zining tilini, madaniyatini, urf- odatlarini saqlab qolishga, rivojlantirib borishga harakat qilgan. Hukmron mafkurada, yuqorida aytganimizdek, bo'ysinish

tamoyili asosiy bo'lgani uchun turli xalqlarning o'zlariga xos milliy belgilarini saqlab qolish va rivojlantirib borishga monelik qilinmagan. Bo'ysunish asosan siyosiy talablar bilan cheklangan. Soliq to'lash, hukmron siyosatga qarshi bosh ko'tarilmaslik bo'ysunishning asosini tashkil etgan.

Hukmron mafkuraga qarshi bosh ko'tarish hollari ham ko'p va tez-tez ro'y berib turgan. Bu ham ikki yo'nalish va ikki xil g'oyaviy maqsadlar asosida olib borilgan.

Birinchi yo'nalishda xalqning maqsadlarini, yurtning tinchligini, milliy qadriyatlarni himoya qilib, bosqinchilarga qarshi bosh ko'targan, keskin jangga otlangan xalq qahramonlarining jasoratli aks etgan. To'maris, Muqanna, Manguberdi va boshqalar ana shular jumlasidan.

Ikkinchi yo'nalishda hukmron saltanati, mafkuraga qarshi bosh ko'targan kichik xukmronlar – uning farzandlari, avlodlari yohud birorta boshqa tobe xukmronning asosan toju-taxt, mansab amal uchun olib borgan kurashlari aks etgan. Bu erda Ulug'bekning o'g'li Abdulatifning o'z otasiga qarshi bosh ko'targanini eslash mumkin. Bu kurashlarda milliy manfaatga nisbatan shaxsiy manfaat ustivorlik qilgan. Shuning uchun ham bu xildagi urushlar, jangu jadallar xalq boshiga azob-uqubat solgan, yurtda vayrongarchiliklarni keltirib chiqargan.

Birinchi yo'nalishdagi kurashlarda milliy manfaatlar ustivorlik qilgan. Bu milliy manfaatlar ma'lum bir millatning manfaatlarini himoya qilish bilan chegaralanmagan. Xalq o'rtasidan chiqqan qahramonlar ozodlik, erk, mustaqillik uchun kurash olib borgan ekanlar, ular mana shu davlatda, jamiyatda, xududda yashab turgan barcha xalq vakillarining manfaatini ham himoya qilgan. Xususan, erk va ozodlik uchun, mustaqillik uchun olib borilgan kurashlar barcha xalqlar vakillarini birlashtirgan, ularning maqsadlarini mushtarak etgan, xalqlar o'rtasidagi yaqin munosabatlarni kuchaytirgan – milliy g'oyaning barqarorlashuviga zamin yaratgan.

Tarixiy taraqqiyotga qisqacha nazar solib, tubandagi xulosalarga kelish mumkin:

▪ Biz mustaqillik yillarida Prezidentimizning shaxsan tashabbusi bilan milliy mafkura, milliy g'oya haqida jiddiy fikr qila boshladik, milliy mafkura, milliy g'oyani izchil, barqaror qilib uning barcha imkoniyatlarini mustaqillikni mustahkamlashga qarata boshladik. Bu, tabiiy, qonuniy, ijtimoiy jarayondir. SHo'rolar zamonida milliy g'oya masalasi chetga surib qo'yilgani uchun uni qayta tiklashimiz va kelajak uchun kurash bayrog'iga aylantirish suv bilan havodek zarur bo'lib qoldi.

▪ Aslida milliy g'oya masalasi barcha zamonlar, davrlar, xalqlar, millatlar uchun asosiy masala bo'lib kelgan. Insoniyat jamiyati barpo bo'libdiki, u ma'lum g'oyalarni amalga oshirish asosida rivojlanib kelmoqda. Jamiyat bor ekan, demak, uning g'oyaviy asosi ham bor. G'oya progressiv yoki reaksiyon bo'lishi, izchil-barqaror yoki tumtaroq, yuksak rivojlangan yoki kuchsiz, zaif bo'lishi mumkin, ammo g'oyasiz jamiyat mavjud bo'lmagan. G'oya har bir jamiyat hayoti uchun, har bir xalq, millat, har bir fuqaro uchun yashash, kurash, maqsadga erishish timsolidir. G'oyaning toptilishi fakolatga olib keladi, g'oyasiz hayot tanazzulga yuz tutadi, g'oyani nazar - pisand qilmaslik juda ko'p xunuk oqibatlarni keltirib chiqaradi. G'oya jamiyat taraqqiyotini asosiy yo'naltiruvchi kuchidir.

▪ Tarixiy taraqqiyot davomida milliy g'oyaning tarkib topishi va rivojlanib borishi bir tekisda kechmagan. Har bir davrning, har bir mamlakatning o'ziga xos g'oyaviy yo'nalishi mavjud bo'lgan. Progressiv, ilg'or, insonparvar g'oyalarga asoslangan jamiyatlar bilan birga agressiv, noinsoniy g'oyalarni asos qilib olgan, shu asosda faoliyat ko'rsatgan davlatlar ham bor. Ziddiyatli qarama - qarshiliklarga ega bo'lgan g'oyaviy yo'nalishlar ham mavjud bo'lgan. Lekin ular odamzotning adolat, tinchlik va birodarlik, taraqqiyot va farovonlik g'oyalariga tayanib, oliy maqsadlar sari intilishini aslo to'xtatolmagan.³⁷

Demak, har bir davrni, har bir mamlakatni shu davr va mamlakatda xukm surgan siyosiy tizim, huquqiy adolat meoyorlarini chuqur tahlil qilish orqali ayni davrdagi milliy g'oyaning mohiyati, mazmuni, yo'nalishini bilib olishimiz mumkin.

³⁷ Qaralsin: Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. 14- bet.

▪ Bosh hukmron o'zini shu mamlakatda yashayotgan barcha millatlarning manfaatini ifodalovchi qilib ko'rsatmasin va shunga intilmasin, baribir uning milliy belgilari (tili, madaniyati, tuyg'ulari) o'z faoliyatida aks etib turadi. Buning yorqin misolini Stalin shaxsida ko'rishimiz mumkin. U o'z siyosatining muvaffaqiyati uchun rus millatiga sig'inar, hatto o'zini rus deb hisoblardi. Ammo u umrining oxirigacha gruzinligini ko'z-ko'z qilmaslik uchun boshqa barcha kichik millatlarni ruslashtirish uchun olib borgan siyosatida gruzinlarni ham ayamadi. Ammo u ruslarga qanchalik sig'inmasin, baribir, rusga aylanmadi, gruzinligicha qoldi.

Hukmron mafkura, xukmron siyosat, xukmron dunyoqarashda aks etuvchi g'oyalar bilan xalqning turmush tarzida, ong - tushunchasida aks etuvchi g'oyalar o'rtasidagi tabiiy, qonuniy ziddiyatlar mavjudligining o'ziga xos sabablari mavjud. Bu ichki murakkab jarayonning ko'z ilg'amas tomonlarini o'rganish, tadqiq etish va xulosalash zarur, zero, millatlararo munosabatlarda namoyon bo'luvchi g'oyalar xuddi shu ichki ziddiyatlar bilan shartlangan bo'ladi.

Hukmron g'oyalar nafaqat mamlakat ichidagi, balki mamlakat tashqarisida davlat va millat manfaatlarini aks ettiradi. Davlatning boshqa mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarini, siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida muvaffaqiyatli hamkorlik qilish uchun davlat ancha mablag' va kuch-g'ayrat sarflashga majbur. Xususan davlatning mudofaa quvvatini mustahkamlashga juda katta mablag' sarflanadi. Ammo xalqning ma'lum qismi o'z manfaatlari doirasida o'ralashib qolib, davlatning tashqi aloqalaridagi xarajatlarni sezmasligi, tushunmasligi yoki unga befarq qarashi mumkin. Shunday paytda milliy g'oyaning bu ikki yo'nalishi bo'yicha ziddiyatlar kelib chiqishi mumkin.

Hatto davlatning ichki xarajatlari ham ma'lum guruh odamlarni to'la qanoatlantirmasligi mumkin. Bunda ham bir necha holat ko'zga tashlanadi. Jumladan, davlatning sarf-harajatlari adolatsiz ravishda olib borilayotgan bir paytda xalqning noroziligi oshib ketadi. Aytaylik, yuqori tabaqa amaldorlar kayfu-safoga maishatga berilib ketadi, ma'lum tarmoqlarni ko'zlovchi inshootlarga katta xarajat sarflash va boshqalar odamlarning qalbida norozilik alomatlarini

kuchaytirib yuboradi. Bu norozilik alomatlari turli millat vakillarida turlicha kayfiyat uygʻotadi.

Har bir millat vakilining oʻz manfaati, oʻz ehtiyojlari bor. Turli millatlar oʻrtasidagi turli manfaatlarning oʻzaro toʻqnashuvida yagona milliy gʻoya rivojlanishiga maʼlum salbiy taʼsirlar boʻlib turadi. Haqiqiy erli millatning manfaatlari davlat manfaatlari bilan anchayin mos boʻlib tushganda jamiyat taraqqiyotining umumiy yagona milliy gʻoyasi yoʻnalishi ancha barqarorlashib, kuchayib boradi. Ammo mamlakatdagi erli boʻlmagan oz sonli millatlarning manfaatlari yerli millat manfaatlari bilan bir muncha farq qilishi mumkin. Har bir kichik millatning mamlakatdan tashqarida oʻz mamlakati bor. Garchi kichik millat vakili Oʻzbekiston fuqarosi hisoblansa-da, garchi u jamiyatdagi ijtimoiy mehnatda faol qatnashsa-da, bari bir undagi vatanparvarlik hissi erli millatnikidan farqlanishi mumkin. U istagan paytda oʻz mamlakatiga ketishi mumkin, kindik qoni toʻkilgan tuproqning oʻziga tortish kuchi tabiiydir va abadiydir. Shuning uchun ham kichik millat vakilining ong-shuuri, ichki maʼnaviy olamida oʻz vataniga, oʻz xalqiga boʻlgan mehr-muhabbat bilan birga oʻzbek xalqiga, Oʻzbekistonga boʻlgan mehr-muhabbat qaysi tomonning ustunligini izlash behuda ishdur.

Bu koʻpincha shaxsning individual ongi - tushunchasi, uning eʼtiqodi, intilishlari bilan bogʻliq. Men Oʻzbekistonda tugʻilib oʻsdim, baxt-iqbol topdim, shu vatan mening uchun ham muqaddasdir, degan fikr bilan yashovchi oʻzga millat vakillari ham bor. Hayoliga hamma vaqt oʻz mamlakatiga ketishni orzu qilib yurgan oʻzga millat vakillari ham bor, oʻz mamlakatiga ketib minnatdor boʻlib yashayotganlar bilan birga ketib soʻng pushaymon boʻlib, qaytib kelganlar ham yoʻq emas.

Mana shu tariqa millatlararo munosabatlarda aks etuvchi milliy gʻoya rang - barang va koʻp qirralidir. Bu rang-baranglikni toʻgʻri tushunish va unga mohirlik bilan taʼsir qilish oson ish emas. Bu masalada vazminlik, chuqur bilimdonlik, uzoqni koʻzlab ish tutish talab etiladi.

Bu oʻrinda quyidagilarga alohida eʼtibor berish lozim:

Mamlakatda yashovchi barcha millatlarning katta-kichikligidan qat'iy nazar ularning huquqlari ham, erkinliklari ham, burchlari ham teppa-teng bo'lishi zarur. Yerli millat vakillariga kichik millat vakillariga nisbatan ko'proq imkoniyatlar berilsa, bu holat kichik millat aozolari izzat-nafsiga tegadi, milliy nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Erkinlik, haq-huquqdagi tenglik, albatta, vijdon va burch, mas'uliyat masalasidagi tenglik bilan ifodalanishi zarur. Millatidan qat'iy nazar, har bir erkinlik, imkoniyat ma'lum burch va masouliyat bilan shartlangan bo'ladi. Bu umumiy qonuniy holat baozan kichik millat tomonidan to'la idrok etilmaydi, suiiteomol qilinadi. Ayrim kichik millat vakillari berilgan erkinlikni, imkoniyat, haq-huquqlarni shunga teppa-teng keladigan burch, masouliyat bilan belgilamaydilar.

Shuning uchun ham millatlararo o'zaro munosabatlarda, odamlarning jamiyatga, davlatga bo'lgan munosabatlarida milliy g'oyaning birlashtiruvchanlik, tashkil etishlik va olg'a etaklash kabi ta'siridan to'laroq foydalanish zarur. Faqat yaxshi shakllangan, buyuk yaratuvchanlik kuchiga aylangan milliy g'oya millatlar o'rtasidagi notenglikka, g'oyaviy chalkashlikka barxam beradi. O'zga millat vakilining ong-tushunchasida vatanparvarlik hissini shakllantirish uchun barcha kuch-imkoniyatlarni ishga solish kerak. Chinakam vatanparvarlik tuyg'usi qalbga oshno bo'lsa, odam berilib mehnat qiladi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan juda ko'p ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy- ma'rifiy chora-tadbirlar natijasida O'zbekistonda millatlararo munosabatlarda biz yuqorida ta'kidlab o'tgan ziddiyatlar jiddiy kamaydi. Ijtimoiy faoliyatning barcha sohalarida, oilaviy munosabatlarda, hamma joyda millatlar o'rtasida do'stlik, hamkorlik, o'zaro yordam, o'zaro hurmatg', o'zaro ishonch keng qaror topib bormoqda.

Ammo rus-o'zbek millatlari o'rtasidagi munosabat haqida to'xtab o'tish zarur. Birinchidan, ruslar O'zbekistonda yashayotgan boshqa millatlarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi. Ikkinchidan, rus-o'zbek munosabatlari o'ziga xos tarixga ega. O'zbekistonda yashayotgan ruslar erli xalq o'zbeklarga nisbatan ozchilikni

tashkil etsa-da, ammo bu ozchilik katta bir millatning – rus millatining vakillaridir. Rossiya bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar O‘zbekistonda yashayotgan ruslarning kayfiyati, faoliyati, ularning ijtimoiy-siyosiy harakatlariga bevosita ta’sir qiladi.

O‘zbek tiliga davlat maqomining berilishi, barcha ish yuritish shakllarining o‘zbek tiliga o‘tishi, lotin grafisiga o‘tilishi kabi hodisalar, istaymizmi - yo‘qmi, rus zabon millatlarga mansub kishilar uchun bir muncha qiyinchiliklar tug‘dirdi. Uzoq yillar O‘zbekistonda yashab, ammo shu yillar ichida o‘zbek tilining oddiy so‘zlashuv me’yorlarini bilib olmaganlikning zarari ko‘zga tashlanib qoldi. Albatta, buning uchun ularni ayblash unchalik to‘g‘ri emas. Sho‘ro hukmronligi ruslashtirish siyosati bunga asosiy sababdir. Bu masala 5-6 yil oldin ancha keskinlashgan bo‘lsa, hozir bir qadar barqarorlashib qoldi. Lekin ikkinchi bir masala ham borki, bu haqda obdon o‘ylab ko‘rish kerak.

Biz mustaqillik yillarida rus kolonializmi, “Sho‘ro hokimiyati” ning ruslashtirish siyosati haqida juda ko‘p gapirdik. Bu borada o‘nlab kitoblar, yuzlab maqolalar eolon qilindi. Darhaqiqat, qaramlikning 130 yilga davom etgani shu yillar ichida o‘zbek xalqi boshiga tushgan juda ko‘p kulfatlar yog‘ilgani, tilimiz, dinimiz, madaniyatimiz oyoqosti qilingani hammasi rost. Bu haqda gapirish kerak. Mustaqillikning qadriga etish uchun, ma’naviy tanazzul va inqirozdan forig‘ bo‘lish uchun bu narsa kerak. Masala Prezident ilgari surgan milliy g‘oya bilan bevosita bog‘liq.

Biz mustaqillikni mustahkamlashga xizmat qiladigan, yangi qurilayotgan fuqarolik jamiyatining ma’naviy asoslarini yaratib beradigan yangi mafkura, yangi milliy g‘oya qanaqa bo‘lishi kerak, degan savolga aniq javob topishimiz uchun uzoq yillar biz qanday mafkura ta’sirida bo‘lganimizni yaxshi bilishimiz kerak. Sobiq mafkura va milliy g‘oyaning ruhimizga ta’sir qilgan va singib ketgan zararli taraflarini aniq seza olsak, undan qutilish uchun shunchalik oson bo‘ladi. Buning uchun quruq gapmas, balki chuqur ilmiy tahlil lozim.

Ammo bu ishlar ilmiy tadqiqotlarda ham, ommaviy ruhdagi maqolalarda ham, teleko‘rsatuvlarda ham, mahruzalar rus xalqiga tosh otish shaklida, ularni qoralash

tarzida olib borilmasligi kerak. Holbuki, biz chorizm siyosati, KPSS siyosati boshqa narsa, rus-o'zbek xalqlari o'rtasidagi munosabatlar boshqa narsa ekanligini esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Bu narsani ko'pincha e'tibordan tashqarida qoldiramiz, natijada ruslarning izzat-nafsiga tegadigan, rus-o'zbek munosabatlaridagi do'stlik ruhiga, Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi davlatlararo munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar ko'zga tashlanib qoladi. Ba'zi misollarga murojaat etish foydadan holi emas.

Besh qismdan iborat "Silsila" telefilmining keskin tanqidga uchrashining boisi ham ana shundadir. Shaxsan I. A. Karimov bu filpmning zararli jihatlarini ko'rsatib o'tdi. Filmda ko'r-ko'rona, ilmiy asossiz, uzuq-yuluq voqealar orqali ruslar qoralanadi, bolsheviklarning O'rta Osiyoda olib borgan siyosati yalang'och holda, soxta naturalizm asosda "fosh" etiladi.

Shu o'rinda biz oldingi sahifalarda bir necha bor ta'kidlab o'tgan bir fikrimizni yana bir eslatib o'tmoqchimiz. Hamma ishda me'yor bo'lishi kerak. Tanqidning ham, maqtoovning ham o'lchov toshi – me'yordir. Me'yor buzilsa tanqid ham, maqtoov ham faqat zarar keltiradi, me'yorni saqlash esa oson ish emas, ammo me'yorsiz har qanday tadqiqot safsatasiga aylanadi.

Milliy g'oya va unig yaratuvchanlik kuchi haqida fikr yuritganda uning doimo o'zgarib, yangilanib turishini e'tiborga olish kerak. Jamiyatdagi barcha o'zgarishlar milliy g'oyada ham ma'lum o'zgarishlar yasaydi. Shuning uchun ham milliy g'oyaning barqaror, doimiy asoslari bilan birga unin sharoitga qarab o'zgarib turuvchi tomonlarini farqlash kerak.

O'zbekistonda eski tizimdan yangi tizimga o'tishnin asosiy strategiyasi ishlab chiqilgan va strategiya Prezidentimiz rahnamoligida sobitqadamlik bilan amalga oshrilmoqda. Fuqarolik jamiyatini huquqiy demokratik tamoyillar asosida barpo etish, bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun kurashda xalqning turmush tarzi farovonligini yuksaltirishga bo'ysundirish odamlarning ichki ma'naviy olami, ong-tafakkurlarini yangilab, yuksaltirib borishdagi asosiy vazifalar – ana shu strategiyaning asosiy yo'nalishlaridir.

Milliy g'oyaning o'zgarib boruvchi tomonlari yangiliklarga intilish, ochilmagan yo'llarini kashf etish, tashqi olam bilan bo'ladigan munosabatlarni o'zgarib turadigan sharoitlar asosida davom etishi bilan bog'liq. Buni biz iqtisodiy, siyosiy, madaniy islohotlarning barchasida ko'rinishimiz mumkin. Bu tashqi siyosat bilan bog'liq. Diniy ekstremizm va xalqaro terrorchilik hamlalarini bartaraf etish uchun kutilmagan chora- tadbirlarini amalga oshirishni talab qiladi.

Prezident I.A.Karimov o'z asarlarida bir fikrni hamisha takrorlaydi: xalqning osoyishtaligini ta'minlash uchun juda katta faoliyat ko'rsatish kerak. Buning uchun katta-katta mablag'larni sarflash lozim. Ammo hamma odamlarimiz ham buning ma'nosini tushunib etavermaydi, qiyinchiliklarni pesh qilib, hukumatni tanqid qiladi. Xususan, o'zga millat vakillari o'z tor manfaatiga o'ralashib qolib, shikoyat qilishdan nariga o'tmaydi.

X U L O S A

Mustaqil O'zbekistonda olib borilayotgan ulkan o'zgarishlar jamiyat hayotining barcha tomonlarini o'zaro aloqada uyg'un holda rivojlantirib borishni taqazo etadi. Iqtisodiy islohatlarning muvaffaqiyat bilan amalga oshishi ma'naviy yangilanishning sifat darajasiga bevosita bog'liq ekanligini biz endilikda ijtimoiy hayotda eng dolzarb masala bo'lib qolgan milliy istiqlool g'oyasi misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Prezident I.A.Karimovning bevosita va shaxsan tashabbusi bilan milliy g'oyaning mohiyati, mazmuni, uni odamlarimiz qalbi va ongiga sindirish borasidagi eng dolzarb qilib qo'yilgan masalalar olimlarimiz daqqat e'tiborini jalb qilib turibdi.

Milliy istiqlool g'oyasining mohiyati va shakllanish bosqichlari haqida olib borilayotgan izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, milliy g'oyaning mohiyatini to'la va har tomonlama ochib berish eng avvalo g'oya tushunchasining mohiyatini bilib olish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu yerda shu narsani alohida uqtirib o'tish joizki, "g'oya" ham, "milliy g'oya" ham faqat bugun paydo bo'lgan, e'tiborga tushgan muammo emas. Insoniyat jamiyati taraqqiyotining ilk bosqichlaridan to hozirgacha g'oya milliy g'oya ijtimoiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuchi bo'lib kelgan. Biz milliy g'oyani tadqiq etish uchun avvalo "g'oya" tushunchasining mohiyatini ochishga harakat qildik. Qadim zamonlardan to hozirgi kungacha o'tgan G'arbu Sharqning o'nlab mutaffakirlari faoliyatiga chuqur nazar solsak, g'oyani ikki aspektda olib qaraganiga guvoh bo'lamiz. Bu ontologik va gnesologik jihatlardir. Garchi g'oyaning bu ikki jihati bir-biridan ajralmas, biridan ikkinchisi kelib chiqadigan bo'lsa ham, baribir, bu ikki aspektning har biri har qaysi davrda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda g'oyaning gnoseologik aspekti bizning davrimiz uchun ustivor ahamiyatga egadir.

Mustaqillik yillarida ro'y berayotgan ijtimoiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, mustaqillikdan buyon hayotning barcha sohasida tinimsiz izlanishlar bormoqda, biz uchun mutlaqo yangi bo'lgan bozor munosabatlarining

qaror topishida g'oyaning yaratuvchanlik, birlashtiruvchanlik va olg'a yetaklovchilik roli benihoya muhimdir. Yuqorida biz tilga olgan yetakchi olimlarimiz bu haqdagi fikrlari g'oyaning gneosologik aspekti o'ta muhim ekanligini ko'rsatadi.

Ammo biz g'oyaning ontologik aspektini inkor etmayotganimizni, ontologik aspekt gneosologik jihat uchun asos manba bo'lib qolishi kerakligini ta'kidlash maqsadida o'z tadqiqotimizga "g'oya-zaruriyat" va "g'oya-maqsad" kabi yangi tushunchani kiritdik. Bu ikkala tushunchaning birligi g'oyaning ob'ektiv va sub'ektiv tomonlari yaxlitligini isbotlovchi dalildir. Ijtimoiy jarayonlarga xos bo'lgan g'oya-zaruriyat butun borliqqa xos bo'lgan g'oya-qadriyat asosida shakllanib ijtimoiy omillarni harakatga keltiradi, odamlarni kelajak sari undaydi.

G'oya-zaruriyat bilan g'oya-maqsad o'rtasida yana bir muhim farq shundaki, g'oya-zaruriyat hamma vaqt milliy yo'nalishga ega bo'ladi, holbuki, ma'lum bir davr, ma'lum bir xalqning manfaatlarini ifodalovchi g'oya-maqsad bo'lishi mumkin, biz mana shu haqiqatdan kelib chiqib, mustaqillikni mustahkamlashning milliy g'oyasini shakllantirishga harakat qilamiz.

Milliy g'oya jamiyat taraqqiyotidagi barcha omillar bilan, shu bilan birga moddiy va ma'naviy omillar bilan uzviy bog'langan. Biz milliy g'oyaning ijtimoiy taraqqiyotda o'ziga xos namoyon bo'lish belgilarini chuqur va har tomonlama tahlil qilish orqali shunday xulosaga keldikki, milliy g'oya moddiy va ma'naviy omillarni yagona maqsad yo'lida birlashtiradi, harakatga keltiradi. Shundan kelib chiqib, biz milliy g'oyani sof ma'naviy hodisa deb hisoblovchilarga o'z e'tirozimizni bildirib o'tdik.

Tarixiy taraqqiyot shundan dalolat beradiki, g'oyasizlik ham moddiy sohada, ham ma'naviy sohada qoloqlikni keltirib chiqaradi. G'oyasizlikka barham berish, g'oyaviylikni to'la ta'minlash uchun tarixiylik va milliy mezonlarini e'tiborga olish zarur. Milliy g'oya millatning tub va asl e'tiyojlarini aks ettirishi, uning real imkoniyatlaridan kelib chiqishi va nihoyat, xalqning yuragidan va ongidan mahkam joy olishi zarur.

Milliy g'oya milliy siyosat, milliy til, milliy tarixiy meros kabi ijtimoiy-tarixiy omillar bilan uzviy bog'langan. Xususan, milliy g'oyaning xalqning milliy turmush tarziga kuchli ta'sir etadi.

Biz o'z tadqiqotimizda mustaqillikni mustahkamlashning ijtimoiy g'oyasining asosiy tayanch manbalari sifatida o'zbek xalqining tarixiy merosi, O'zbekistonning yer osti va yer usti, behisob tabiiy boyliklari, xalqimizning me'natsevarligi, tadbirkorligi va nihoyat, O'zbekiston tanlagan yo'lining adolatli yo'l ekanligi kabi omillarni alohida ta'kidlab o'tamiz. Mana shu omillar "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" degan mustaqillik g'oyasini reallikka aylantirishga asos bo'ladi.

Milliy g'oyani nazariy jihatdan yuksak va chuqur tahlil etish uchun tarixiy haqiqat meyorlariga astoydil amal qilish zarur. Tarixiy haqiqat eng murakkab va chigal hodisa hisoblanib, tarixiy haqiqatni tiklash va hozirgi kunning eng dolzarb va eng zarur muammosi bo'lib turibdi. Tarixiy haqiqatni tiklash borasida yaratilgan ilmiy asarlarda ko'pincha haqiqat me'yor yetishmasligi ko'zga tashlanadi. Bu hodisa ba'zan tadqiqotchilarning bilim saviyasi bilan bog'liq bo'lsa, ba'zan uning o'z individuval qarashlari bilan o'ralashib qoladi. Tarixiy haqiqatni ochish uchun chuqur bilim, keng tafakkur, xolisona niyat va sabr-qanoat zarur. Buning uchun yana zamonaviylik va tarixiylik tushunchalarini bir-biriga to'g'ri solishtira olish qobiliyati kerak bo'ladi. Zamonaviylik hissi oshib ketsa, tarixiylikka putur yetishi mumkin, aksincha, tarixiylik hissi chegaradan oshib ketsa, zamonaviylik qadrsizlanadi. Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi da'vati ham tarixiy haqiqatni tiklashning nechog'lik muhimligini ko'rsatadi: "Tarix xotirasi xalqning, jonajon o'lkani, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o'zlikni anglashda, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'zlashtirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi".³⁸

Anglashiladiki, tarixiy haqiqat o'tmishni to'g'ri tushunish orqali hozirgi voqealarni haqqoniy baholash va shu tariqa kelajakni to'g'ri ko'ra bilish uchun zarur. Tarixiy haqiqatni aniqlash orqali o'z xatolarimizni to'g'ri ko'ra olamiz, o'z yutuqlarimizga mahliyo bo'lmasdan, kelgusidagi rejalarimizni puxta tuza olamiz.

³⁸ I. A. Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'sida 140-bet.

Hozirgi milliy g'oya muammosi bilan ko'plab olimlar, jurnalistlar, yozuvchilar shug'ullanmoqda. Biz mavzuni yoritishda ularning barchasining tadqiqotlaridan emas balki chuqur ilmiy-nazariy va falsafiy asosga suyanadiganlardan foydalanishga harakat qildik.

Inson faoliyatida, xatti-harakatida manfaat mavjudligi, xuddi mana shu manfaatlar to'qnashuvi natijasida jiddiy voqealar ro'y berishi mumkinligini inobatga olish-tarixni falsafiy idrok etishning bosh omilidir. Ko'p holatlarda shaxsiy manfaat ijtimoiy manfaatlarga zid kelib qoladi. Manfaatlarni murosaga keltirish uchun bu manfaatlar mazmun va mohiyatini falsafiy tahlildan o'tkazish taqozo qilinadi. Manfaat real hayotiy ehtiyojdan kelib chiqsa, uni amalga oshirish uchun kurashda diyonat, imon-e'tiqod ustivorlik qilsa, bunday manfaatni qo'llab quvvatlash zarur. O'z manfaatini ko'pchilikning manfaatiga uyg'unlashtirish insondan katta jasorat talab qiladi. Milliy g'oya bu o'rinda ham asosiy me'yor xizmatini o'taydi.

Milliy g'oya milliy siyosat bilan uzviy bog'liq. Milliy g'oya deganda faqat bitta millatning manfaatlari bilan chegaralini qola olmaymiz. Milliy g'oya ma'lum mamlakat, ma'lum jamiyat manfaatlarini aks etiradi. Jamiyatda esa turli millat vakillari istiqomat qilishlari mumkin. Milliy g'oya jamiyatda yashayotgan har bir millat vakilining manfaatini alohida-alohida aks etiradi deb bo'lmaydi, aksincha, milliy g'oya jamiyatda yashayotgan barcha millatlarning mushtarak manfaatlarini aks etiradi. Yuqoridagi nazariy mushohadalar O'zbekiston Respublikasida yashayotgan millatlarning totuvligi, ahilligi, manfaatlar mushtarakligini aks ettirib turibdi. I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va izchillik bilan amalga oshirilayotgan milliy siyosat mustaqillikning asosi bo'lgan milliy g'oyaga mosdir.

Milliy g'oyani shakllantirish va mustahkamlash uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz.

Birinchidan, milliy g'oya mohiyati va xususiyatlarini ilmiy, izchil va sodda tarzda yoritib beradigan qo'llanma kitoblarni ko'plab nusxada chop etish, ularni aholi o'rtasida keng tarqatish zarur.

Ikkinchidan, barcha maktablar, oʻrta taʼlim muassasalari, oliy oʻquv yurtlarida milliy gʻoyaning mohiyati, tarkibiy tuzulishi, asosiy manbalari haqida doimiy maʼruza va amaliy mashgʻulotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, oila tarbiyasida bu borada jiddiy ishlarni amalga oshirish zarur. Oilada bolalar dunyoqarashining shakllanishiga asosiy eʼtiborni qaratish lozim. Milliy gʻoya mohiyatini sodda shaklda goʻdak vujudiga singdirish yoʻllarini izlash kerak.

Toʻrtinchidan, keng xalq ommasi oʻrtasida milliy gʻoya mavzu boʻyicha mahorat bilan maʼruza va suhbatlar uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, milliy gʻoyaning xalq ongiga singishi uning qalbidan joy olishi uchun bu yoʻldagi toʻsiqlarga, illatga qarshi keskin kurashishi lozim. Diniy ekstremizm, fundamentalizm, terrorchilik harakatlari milliy gʻoya yoʻlidagi jiddiy xavf-xatar hisoblanadi.

Xalqimiz oʻrtasida uchrab turadigan mansabparastlik, oshna-ogʻaynigarchilik, imonsizlik, boylikka keragidan ortiqcha xirs qoʻyish kabi illatlar ham milliy taraqqiyotimizga ziddir.

Milliy istiqlol gʻoyasini shakllantirish va uni odamlarning, xususan yoshlar qalbiga singdirish borasidagi vazifalar jamiyatimizning umumiy taraqqiyoti muammolari bilan uzviy bogʻliqdir. Bular quyidagilardan iborat:

- 1) bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich oʻtilar ekan, har bir bosqichdagi yutuq va kamchiliklarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish;
- 2) jamiyatni siyosiy jihatdan boshqarishda demokratik tamoyillarga ogʻishmay amal qilish;
- 3) xalqning, odamlarning ong tushunchalarini yangilash, maʼnaviy poklash, dunyoqarashini kengaytirish;
- 4) mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini keng avj oldirish;
- 5) oʻqimishli, bilimli sadoqatli kadrlar tayyorlash, taʼlim-tarbiya tizimini isloh qilishni izchil davom ettirish va jahon talablari asosida takomillashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, «O'zbekiston», 2002.
2. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi. 1997, 26 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi Qonuni. 1997, 29 avgust.
4. Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. 1997, 29 avgust.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyoti poydevori. – Toshkent, «O'zbekiston», 1997.
6. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. –Toshkent, «O'zbekiston», 1996.
7. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqini xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. Toshkent, «O'zbekiston», 1998.
8. Karimov I.A. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari. Toshkent, «Sharq», 1998.
9. Karimov I.A. Milliy istiqlool mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent, «O'zbekiston», 2000.
10. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Toshkent, «O'zbekiston», 1999.
11. Karimov I.A. O'zbekiston xalqi o'z yo'lidan qaytmaydi. Toshkent, «O'zbekiston», 1996.
12. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, «O'zbekiston», 1997. 326 b.
13. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent, «O'zbekiston», 1999.
14. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – Toshkent, «O'zbekiston», 1996.
15. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild, Toshkent, «O'zbekiston» 2000.
16. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild. Toshkent, «O'zbekiston», 1998.
17. Karimov I.A. Xushyorlikka da'vat. Toshkent, «O'zbekiston», 1999.
18. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, «Ma'naviyat», 2008.
19. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar - taraqqiyot omili. Toshkent, «O'zbekiston», 1996.
20. Abdullaev A. Ma'naviyat va iqtisodiy tafakkur. –Toshkent, «Ma'naviyat», 1999.
21. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik asoslari. Farg'ona, 1998.

22. Abdullaev M. Esteticheskaya kultura. Toshkent, «Fan, 1991.
23. Abduraxmonov B. Mustaqillik va milliy manfaatlar. Toshkent, «O‘zbekiston», 1997.
24. Abilov O‘. Milliy g‘oya: ma’naviy omillar. Toshkent, «Ma’naviyat» 1999.
25. Abilov O‘. Milliy g‘oya-xalqni etaklovchi kuch.//Muloqot, 2000, 4-son.
26. Aliev A. Istiqlol va adabiy meros. Toshkent, «O‘zbekiston», 1997.
27. Alimova D. Tarix va zamon. Xalq so‘zi, 2001, 27 iyul.
28. Aminov B. Shodiev M., Rasulev T. SHarqona bozor fazilatlar. Toshkent. «Universitet», 1996.
29. Bekmurodov. O‘zbekistonda jamoatchilik fikri. Toshkent, 1999.
30. Jabborov I. Antik madaniyat va ma’naviyat xazinas. Toshkent, «O‘zbekiston», 1999.
31. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. Toshkent, «O‘qituvchi», 1994.
32. Jalolov A. Mustaqillik mas’uliyati. Toshkent, «O‘zbekiston», 1996.
33. Juraev N. Tarix falsafasi. T., 1999.
34. Jo‘raev N. Tarix falsafasi. Toshkent, «Ma’naviyat», 1999. 192 b.
35. Ziyozamat. O‘zbek davlatchiligi tarixi. –T., 2000.
36. Ziyoev H. Istiqlol-ma’naviyat negizi. –T., Ma’naviyat, 1999.
37. Ibohimov A., Sultonov H., Jo‘raev N. Vatan tuyg‘usi. –T., O‘zbekiston, 1996.
38. Ibrohimov A. Bizkim, o‘zbeklar. –T., 1999.
39. Erkaev A. Bir-birini taqozo etuvchi ikki zaruriyat.//Muloqot, 2000, 3-son.
40. Falsafa (Ma’ruzalar matni). –T., 2000.
41. Fayzullaev O. Milliy mafkura va milliy g‘oya metodikasi. // Mustaqil O‘zbekiston: falsafa fanlarining dolzarb muammolari. VII kitob. T.. 2000.
42. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar T. 2000.
43. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – M.; 1981 2-tom.
44. O‘zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. –T., Qomus, 1997.
45. Ochildiev A. Milliy g‘oyamiz asoslari.//Tafakkur, 2000, 3-son.
46. Qosimov B. Jadidlar va milliy mafkura. Tafakkur, 2000, 3-son.
47. Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” (M.1983, t.1, 371-bet)
48. Shermuhamedov S. Biz qanday jamiyat qurmoqdamiz. -Toshkent, “O‘zbekiston”, 1999.
49. Shermuhamedov S. Milliy g‘oya va uning ijtimoiy taraqqiyot(progress)dagi o‘rni. //Mustaqil O‘zbekiston: falsafa fanlarining dolzarb muammolari. VII kitob.T. 2000.
50. Spirkin A.G. Filosofiya.M.,2000.
51. Xonazarov Q. Milliy ong va milliy mafkura.//Mustaqil O‘zbekiston: falsafa fanlarining dolzarb muammolari. VII kitob. 2000.

MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA MILLIY G‘OYANI TARKIB TOPTIRISHNING IJTIMOIIY-TARIXIY NEGIZLARI

REJA:

KIRISH

1 – BOB. G‘OYA TUSHUNCHASI: MOHIYATI, MAZMUNI, MILLIY JIHATLARI

- 1.1. G‘oya tushunchasi va uning nazariy-falsafiy tahlili.
- 1.2. Milliy g‘oya va ijtimoiy-tarixiy qadriyatlar .

2 – BOB. MILLIY G‘OYANI TARKIB TOPTIRISHNING TARIXIY- MA’NAVIY OMILLARI

- 2.1. Tarixiy haqiqatning tiklanishi – milliy g‘oyaning tiklanishida obyektiv asos.
- 2.2. Milliy g‘oya – millatlararo totuvlikning tarixiy-ma’naviy tayanchi sifatida.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR